

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TARIX FAKULTETI**

**Satimov Bahodir**

**“Mustaqillik yillarida Xorazm tarixini o`rganishda davlat grantlari va  
innovatsion loyihalarning ahamiyati”.**

**5A120302 ”TARIX” (mamlakatlar va yo`nalishlar bo`yicha)  
Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**DISSERTATSIYASI**

**Ilmiy rahbar:**

**t.f.n. M.T. Jumaniyozova**

**Urganch 2017**

## Mundarija

### **Kirish.....**

#### **I.bob. Xorazm tarixini yoritishda innovatsion loyihalar va ularning ahamiyati**

- 1.1. Innovatsion loyihalar orqali Xorazmda tarixiy tadqiqotlarni rivojlantirish
- 1.2. Xorazm etnografiyasini rivojlantirishda innovatsion loyihalarning ahamiyati.
- 1.3. Xorazmda turizmni rivojlantirish sohasidagi amalga oshirilgan innovatsion loyihalar.

#### **II bob. Xorazm tarixini yoritishga oid davlat grantlari va ularning natijalari**

- 2.1 Xorazmning davlatchilik tarixiga oid ilmiy loyihalar va ularning natijalari
- 2.2. Xorazm Ma`mun Akademiyasi tomonidan amalga oshirilgan davlat grant loyihalarining Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirishdagi ahamiyati.

#### **III-боб.Xorazm Etnografiyasini yoritishda M.T. Jumaniyozova, O`I.Abdullayev, O.O.Matasulovlarning “Xorazm an`anaviy taomlari tarixi” va Sh.Q.Nurullayevaning “Xorazm an`anaviy kiyimlari va taqinchoqlari” mavzusidagi innovatsion loyihalarining ahamiyati.**

- 3.1. M.T. Jumaniyozova, O`I.Abdullayev, O.O.Matasulov “Xorazm an`anaviy taomlari tarixi”
- 3.2. Sh.Q.Nurullayevaning “Xorazm an`anaviy kiyimlari va taqinchoqlari”

### **Xulosa.....**

#### **Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati.....**

#### **Ilovalar-----**

## **KIRISH.**

**Mavzuning dolzarbligi:** XXI asr ilm-fan taraqqiyotining ulkan yutuqlari bilan belgilanadi. Zero, misli ko`rilmas kashfiyotlarning asosi ilmdadir. Albatta mustaqillik davrida O`zbekiston Respublikasining barcha ilmiy tadqiqot institatlari, markazlari, oliy ta`lim muassasalarida ko`plab ilmiy ishlar olib borildi. Olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy yangiliklarni keng ommaga ma`lum qilish, ulardan ishlab chiqarishda va amaliyotda samarali foydalanish maqsadida respublikamiz tomonidan innovatsion loyihalar yarmarkalari tashkil qilina boshlandi.

“Qadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning maqsad-natijalariga qaratilgan ushbu yarmarkalarga respublikamizning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy-ma`rifiy taraqiyotiga bag`ishlangan ko`plab loyihalar taqdim etildi. Ularning katta ko`pchiligi davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan shartnomalar asosida qo`lga kiritilib amaliyotga tadbiq etildi.

2017-yilga qadar innovatsion loyihalar respublika miqyosida yo`qqiz marta va regional miqyosida ham bir necha marotaba o`tkazildi. Bu yarmarkalarda ijtimoiy fanlarning dolzarb masalalari va yangiliklari ham loyiha sifatida ishtirok etdi. Ayniqsa hududiy yarmarkalarda Xorazm tarixini aks ettiruvchi bir qancha innovatsiyalar korxona va tashkilotlar e`tiborini o`ziga jalb etdi.

**Ishning maqsadi va vazifalari:** Ushbu magistrlik ishidan asosiy maqsad **Xorazm tarixini o`rganishda innovatsion loyihalar va ilmiy grantlarning ahamiyatini** yoritishdan iborat. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda bir qancha vazifalar amalga oshirildi:

- 2013-yilda o`tkazilgan V-respublika innovatsion loyihalarning hududiy yarmarkasida Xorazm viloyati hokimligi tomonidan e`tirof etilgan va t.f.n Sh.Nurillayeva tomonidan taqdim etilgan “Xorazm an`anaviy kiyimlari” loyihasini o`rganish;
- 2014-yilning 14-martida Urganch shahrida o`tkazilgan Xorazm viloyati innovatsion g`oyalar, texnologiyalar va ishlanmalar VI-hududiy yarmarkasiga taqdim etilgan va

respublika yarmarkasida yuqori baholangan t.f.n Jumaniyozovaning M. “Xorazm an`anaviy taomlari assortimentlarini ko`paytirish orqali voxada turizmni rivojlantirish” loyihasi ahamiyatini o`rganish;

- 2015-yilning 23-25-aprelida Nukus shahrida tashkil qilingan VII yarmarkada Xorazm tarixini yangicha yondashuvlar asosida yoritishga qaratilgan “Xiva shahri ichonqal`a arkida arxeologik yodgorliklarni konservatsiyalash ishlarini olib borish” loyihasi, “Globallashuv jarayonida axborot-psixologik xavfsizlik muammolari” loyihalarining milliy an`analarni targ`ib qilish va yosh avlodni turli xil axborot xurujlari va ma`naviy tuban illatlardan ximoyalash va xalos qilishdagi ahamiyatini ilmiy asoslashdan iborat.

-2015-yilning may oyida Toshkent shahrida o`tkazilgan innovatsion g`oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarning VII respublika yarmarkasiga taqdim etilgan t.f.n M. Jumaniyozova tomonidan tayyorlangan “Etno-Xorazm” loyihasi, t.f.n Y.Raxmonova tomonidan tayyorlangan “Xiva: madaniy meros: an`analar va zamonaviylik (tarixiy –etnografik ocherk)”, “Gorod Xiva: jizn goroda: traditsii I transfarmatsii (XVI-XX vv) Oznakomitelnoe posobi dlya turistov” loyihalarning Xorazm vohasi aholisining an`ana va urf odatlarini o`rganish, ularning voxa etnografiyasining tadqiq etishdagi ahamiyatini yoritish.

-Xorazm tarixini yoritishda muhim ahamiyat kasb etgan UrDU va Xorazm Ma`mun akademiyasi tomonidan ishlangan davlat grantlarining ahamiyatini yoritish.

### ***Tadqiqot obekti va predmeti:***

Tadqiqot obekti Xorazm viloyati, predmeti- Xorazm tarixi bo`yicha taqdim etilgan innovatsion loyihalar, davlat grantlari va ular yuzasidan chop etilgan risola, o`quv-uslubiy qo`llanma, monografiyalar.

***Tadqiqot uslubiyati va uslublari:*** Magistrlik dissertatsiyasini yozishda tarixni yoritishning umuminsoniyat tomonidan qabul qilingan prinspiallik, reallik, holislik kabi prinsiplariga amal qilinadi. Ilmiy ish yozishning analiz, sintez va ilmiy taxlil usullaridan foydalilanildi.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi:** Mustaqillik yillarda Xorazm tarixiga oid bo`lgan yangi ma`lumotlar ko`rib chiqildi. O`zbekiston etnosiyosatining qator jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar berildi

**Tadqiqotning amaliy ahamiyati:** Birinchidan, ushbu mavzuning o`rganilishi va yoritilishi talaba, o`quvchi va tadqiqotchilarda hozirgi kunda davlatimizning qay darajada rivojlanib borayotganligini va bu rivojlanish jarayonida ilmiy grantlar va innovatsion jarayonlarning ahamiyati qay tarzda olib borilayotganligi alohida ahamiyat qaratiladi.

Ikkinchidan, ushbu ilmiy grant va innovatsion loyihalardan ishlab chiqarish, turizm sohasi va ilmiy izlanishlar olib borishda foydalanish mumkin.

Uchinchidan, joylarda tashkil etiladigan innovatsion loyihiilar yarmarkalarida ushbu ishdagi tavsiyalardan foydalanish mumkin

**Ishning tuzilishi va tarkibi:** Magistrlik dissertatsiyasi kirish, 3ta bob, 7ta paragraf, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati va ilovalardan iborat.

## **I.bob. Xorazm tarixini yoritishda innovatsion loyihalar va ularning ahamiyati.**

### **1.1. Innovatsion loyihalar orqali Xorazmda tarixiy tadqiqotlarni rivojlantirish.**

XXI asr ilm-fan taraqqiyotining ulkan yutuqlari bilan belgilanadi. Zero, misli ko`rilmas kashfiyotlarning asosi ilmdadir. Albatta mustaqillik davrida O`zbekiston respublikasining barcha ilmiy tadqiqot institatlari, markazlari, oliy ta`lim muassasalarida ko`plab ilmiy ishlar olib borildi. Olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy yangiliklarni keng ommaga ma`lum qilish, ulardan ishlab chiqarishda va amaliyotda samarali foydalanish maqsadida respublikamiz tomonidan innovatsion loyihalar yarmarkalari tashkil qilina boshladi. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan va “Qadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning maqsad-natijalariga qaratilgan ushbu yarmarkalarga respublikamizning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy-ma`rifiy taraqqiyotiga bag`ishlangan ko`plab loyihalar taqdim etildi. Ularning katta ko`pchiligi davlat va nodavlat tashkilotlar tomonidan shartnomalar asosida qo`lga kiritilib amaliyotga tadbiq etildi.

2017-yilga qadar innovatsion loyihalar respublika miqyosida to`qqiz marta va regional miqyosida ham bir necha marta o`tkazildi. Bu yarmarkalarda ijtimoiy fanlarning dolzarb masalalari va yangiliklari ham loyiha sifatida ishtirok etdi. Ayniqsa, hududiy yarmarkalarda Xorazm tarixini aks ettiruvchi bir qancha innovatsiyalar korxona va tashkilotlar e`tiborini o`ziga jalgan etdi.

2013-yilda o`tkazilgan V-respublika innovatsion loyihalarning hududiy yarmarkasida

t.f.n. Nurillayeva Sh.Q. tomonidan taqdim etilgan “Xorazm an`anaviy kiyimlari” loyihasi xorazm viloyati hokimligi tomonidan e`tirof etildi. Bu loyihada voha aholisining an`anaviy kiyim kechaklari va ularning lojal xususiyatlarini yoritish ko`zda tutilgan edi. Loyiha monografiya sifatida chop etildi va o`quvchilarga yetkazib berildi.

2014-yilning 14-martida Urganch shahrida o`tkazilgan Xorazm viloyati innovatsion loyihalar, texnologiyalar va ishlanmalar VI-hududiy yarmarkasiga

Xorazm tarixini aks ettiruvchi 5ta loyiha taqdim etildi. Shulardan ikkitasi t.f.n. Jumaniyozova M.T “Xorazm an`anaviy taomlari assortimentlarini ko`paytirish orqali vohada turizmni rivojlantirish” va t.f.n. Nurullayeva SH.Q “Xorazm an`anaviy kiyimlari” loyihalari respublika bosqichiga tavsiya etildi.

Bu bosqichda har ikkala loyiha uchun 20 million so`mlik shartnoma imzolandi. Loyihalar natijasi o`laroq “Xorazm an`anaviy taomlar tarixi” monografiyasи va “Xorazm an`anaviy kiyimlari” qatalogi nashrdan chiqarildi.

Ushbu loyihalarda Xorazm voxasi aholisining XIX-XX asrlardagi etnografik xususiyatlari, moddiy va ma`naviy madaniyatiga xos muhum jihatlari aks etgan. Mustaqillik yillarida yosh avlodni asriy an`analar bilan tanishtirishdek ulkan vazifani amalga oshirgan yuqoridagi loyihalar tarixning yangi sahifalarini yurtdoshlarimizga ochib bera oldi desak xato bo`lmaydi. 2015-yilning 23-25-aprelida Nukus shahrida tashkil qilingan VII yarmarkada esa Xorazm tarixini yangicha yondashuvlar asosida yoritishga qaratilgan bir nechta loyihalar tayyorlandi. “Xiva shahri Ichonqal`a arkida arxeologik yodgorliklarni konservatsiyalash ishlarini olib borish” loyihasi madaniy merosni saqlash va qayta tiklashga qaratilgan bo`lsa, “Globallashuv jarayonida axborot-psixologik xavfsizlik muammolari” loyihasi milliy an`analarni targ`ib qilgan holda yosh avlodni turli xil axborot xurujlari va ma`naviy tuban illatlardan himoyalash va xalos qilishga qaratilgandir.

2015-yilning may oyida Toshkent shahrida o`tkazilgan innovatsion g`oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarning VII respublika yarmarkasiga taqdim etilgan 3 ta loyiha 45 million so`mlik shartnoma bilan imzolandi. T.f.n Jumaniyozova M.T tomonidan tayyorlangan “Etno Xorazm” (15 million so`milk) loyihasi Xorazm vohasi aholisining an`ana va urf-odatlarni o`zida mujassamlashtirgan ajoyib tarixiy, ilmiy-ommabop jurnalni nashr etish bilan bog`liq bo`lib u voha etnografiyasini tadqiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

T.f.n Raxmonova Y.M tomonidan tayyorlangan “Xiva: madaniy meros: an`analar va zamonaviylik (tarixiy-etnografik ocherk),” Gorod Xiva: jizn goroda: traditsii i

transfarmatsii (XVI-XX). Oznakomiteli posobi dlya turistov") loyihalariga 45 million so`milk shartnama imzolandi. Bu loyihalarda ajoyib tarixiy ma`lumotlarni aks ettirish ko`zda tutilganki, u voxamizga tashrif buyurayotgan chet ellik va mahalliy sayyoohlar uchun muhim yo`l boshlovchi vazifasini o`taydi. Bundan tashqari Xorazm tarixi bilan shug`ullangan tadqiqotchilar uchun ajoyib ma`lumotlar manbai va talaba –yoshlar uchun yordamchi ma`lumotlar bazasini o`taydi. Ushbu loyihada asosiy e`tibor sayyoohlar uchun Xorazm xalqining hayoti, an`analari, tarixi va boy madaniyati bilan tanishtiruvchi risola tayyorlash muammosiga qaratilgan. “Xiva: madaniy meros: an`analar va zamonaviylik” loyihasining yangiligi shundan iboratki yurtimizga tashrif buyurgan sayyoohlarni o`lka turmushi bilan tanishtiruvchi kitoblarga bo`lgan extiyoji to`ldiriladi. Ushbu risola sotuvdagi bir taraflama yondashuvdagi ma`lumotlarni jamlagan kitoblardan farq qilib, unda Xiva shahri va shaharliklar hayotining an`ana, o`zgarishlari yoritib berilgan. Illyuratsion suratlar bilan albomlar tayyorlanilgan. Risola rus, ingliz va fransuz tillariga o`giriladi. Ushbu loyihaning qo`llanilish sohasi asosan sayyoohlar uchun mo`ljallangan bo`lib, xorijliklarni yurtimizning boy tarixi va madaniyati bilan tanishtirishda muhim ahamiyatga ega. Loyihaning asosiy texnik va texnologik ko`rsatkichlari Xiva shahrining paydo bo`lishi, shaharda kechgan siyosiy jarayonlar, shaharliklar savdosi va dexqonchiligi, hunarmandchilik an`analari, Xiva milliy taqinchoqlari, maorif va ta`lim tarixi, musiqa san`ati rivoji, zamonaviy Xiva kabi masalalar yoritib berilgan.<sup>1</sup>

Xorazm tarixini yoritishda arxeologik loyihalarning o`rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday tadqiqotlardan biri millodan.avv.VI asrga oid Xumbuztepa yodgorligining aniqlanishidir. Bu yerdan topilgan mil.avv.IV asrga oid daxmaning yuqori satxidan sirtida yozuv namunasi bo`lgan sopol bo`lak – “ostrokon” ning topilishi muhim yangilikdir. Sank-Peterburg Davlat Ermitaji mutaxassisi, epigraf-olim Pavel Lure fikriga ko`ra mazkur yozuv qadimgi Xorazm alifbosiningg xarflaridan

---

<sup>1</sup> Rahmanova.Y.M “Xiva: madaniy meros: an`analar va zamonaviylik” loyihasi Urganch 2014 y

tashkil topgan. Ushbu topilma qadimgi Xorazm tarixiga doir epigrafik manbalarni yanada boyitadi.

Hozirgi vaqtda ham arxeologik ekspeditsiyani amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Hisobot davrida ibodatxona shimoliy-g`arbiy burchagidan va undan shimoldagi aniqlangan daxmadan topilgan manbalar tizimlashtirildi. Ibodatxonadan shimolda to`g`ri burchakli 3 ta yerto`la aniqlandi va o`rganildi. Yerto`lalar qoldiqlari materik ustida joylashgan bo`lib, ibodatxona qurilgungacha (mil.av V asrning boshi) hosil bo`lgan qatlam bilan qoplangan va ishonch bilan ularni mil.avv VI asrga taaluqli deyish mumkin. 2-yerto`la qatlamda odam suyaklari aniqlanib, bu esa yerto`lalarning zardushtiylik dafn marosimlari bilan bog`liq degan fikrni ilgari surishga imkon beradi. Qazishmalar natijasida mil. avv VI-IV asrlarga oid ko`plab boy va ifodali topilmalar olindi: bular bus-butun saqlangan kosalar, qadaxlar va sopol qozonlardir<sup>2</sup>.

Arxeologik yodgorliklarni konservatsiyalash ishlarini olib borish (Xiva shahrida ichin qal`a arki misolida) loyihasida asosiy e`tibor Xiva shahri, Ichon qal`a ko`hna arkida joylashgan arxeologik yodgorliklarni saqlab qolish muammosiga qaratilgan. Ma`lumki Ark turistik shahar Xivaning eng qadimiy davrida bunyod etilgan. Xonlar rezidensiyasi Arkka kiraverishda chap tomonda arxeologik qazuv ishlari olib borilgan bo`lib, bu jarayonda topilgan qal`aning qadimiy qismi qoldiqlari o`zida shaharning yoshi ko`hna ekanligini namoyon etib, noyob arxeologik obekt sifatida sayyoohlarning diqqatini jalg qiladi. Ushbu yodgorlik aggressiv tabbiy iqlim sharoitlari natijasida yemirilib borayapti. Oqibatda eng qadimiy yodgorlikning yo`q bo`lib ketish xafi yuzaga kelgan. Shu jihatdan tezlik bilan bu yodgorlikni saqlab qolish choralarini ko`rish kerak bo`lib, bu yo`lda birinchi navbatda yodgorlikni konservatsiyalash masalasini xal qilish lozim.

Loyihaning yangiligi shundan iboratki loyiha Xiva shahrida joylashgan xon arkidagi yodgorlikni saqlab qolish rejalari va ularni amalga oshirish tadbirlari,

---

<sup>2</sup> Xorazm Ma'mun akademiyasida bajarilgan (Φ1-ΦA-0-17788) shifrlı grantning 2016 yil uchun hisoboti

takliflar va fikrlar tizimi ishlab chiqildi. Xususan arxeologik obekt ustiga qalin shisha qoplamasini o`rnatalishi tarixiy obektni asl, umumiy holatda tomosha qilish imkonini berishi bilan birgalikda, agressiv tabiiy ta`sirlardan ximoyalash imkoniyatini vujudga keltiradi. Shu asosda yodgorlikni umrboqiyligi ta`minlanib, turizmni rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi.

Ushbu loyihani qo`llanilish sohasi shundan iboratki : loyiha davomida ishlab chiqilgan reja va tadbirlar asosida tarixiy yodgorlikarni asrash va kelajak avlod uchun saqlash muammolariga e`tibor qaratilgan. Ushbu loyiha ta`lim, turizm va o`lkashunoslik sohalarida targ`ib qilinadi.

Viloyatda turizmni rivojlantirishga muhum hissa qo`shiladi, istiqbolda boshqa ko`pgina tarixiy obidalarni asrash mexanizmi ishlab chiqiladi. Mazkur loyiha asosida qo`llanma, risolalar chop etiladi. Loyihani amalga oshirish va amaliyotga tadbiq qilish respublikamiz turizm sohasining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo`ladi.

Hozirgi davrda Globallashuv jarayonida axborot-psixologik xavfsizlik muammolari yechimi ham muhim ahamiyat kasb etadigan muammolardan biridir. Globallashuv jarayonida axborot-psixologik xavfsizlik muammolari yechimi mavzusida innovatsion loyiha tayyorlanib bu loyihada asosiy e`tibor ochiq ommaviy axborot vositalari orqali tinimsiz ma`lumotlar quyilib kelayotgan sharoitda insonning axborot tahdidlarini baholash va xavfsizlikni ta`minlash imkoniyatlarini kengaytirish muammosiga qaratilgan. Shu jihatdan, tezlik bilan yoshlarni axborot tahdidlaridan asrash masalasini hal qilish lozim.

Loyihaning yangiligi shundan iboratki “Axborot-psixologik xavfsizlik markazi” tuzilib, ongi shakllanib ulgurmagan yoshlarni turli taxidlardan, ataylab uyushtirilayotgan mafkuraviy tajovuzlardan himoyalash, markaz bilan zamonning eng jadal axborotlarini yoritib boruvchi shaxs, jamiyat va davlatga taxdid soluvchi axborot manbalari haqidagi targ`ibot olib borish, taxidlarga qarshi milliy istiqlol g`oyasining maqsadlarini amalga oshirish tadbirlari, takliflar va fikrlar tizimi ishlab chiqildi.

Xususan, shaxsning ma`naviy-axloqiy takomili, o`zini-o`zi himoya qilish, boshqarish imkoniyatlarini yoshlarga o`rgatish, vatanparvarlik tuyg`ularini shakllantirish, aholiga g`oyalarni yetkazish usullaridan foydalanish bosh maqsad qilib olindi. Shu asosda shaxs, jamiyat va davlatga qarshi taxdidlarga kurashuvchi mexanizm takomillashadi, barkamol avlodni tarbiyalash imkoniyatlari kengayadi.

Bu loyihaning qo`llanilish sohasi shundan iboratki:

- Loyiha davomida ishlab chiqilgan reja va tadbirlar asosida maktablar, o`rta maxsus va oliy ta`lim muassasalari, OAV orqali jamiyatning turli ijtimoiy qatlamlariga targ`ibot olib boriladi.
- Mazkur loyiha asosida qo`llanmalar, risolalar chop etiladi, veb-sayt va televizion dasturlar yaratiladi.

Bu loyihaning asosiy texnik va texnologik ko`rsatkichlari shundan iboratki

1-bosqichda tadqiqotlar natijasida axborot xavfsizligi yuzasidan usul va vositalardan foydalanish, takliflar va fikrlar tizimi takomillashtiriladi.

2-bosqichda reja asosida targ`ibot ishlari kuchaytiriladi, amaliy natjalarga erishiladi.

Xorazm tarixini yoritishga qaratilgan yana bir innovatsiyalardan biri bu dots.Q.Sobirov tomonidan yaratilgan “Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshoatlari” (Mill.avv VI-milodiy IX asrlar) monografiyasidir. Bu monografiya O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi “Fan” nashriyoti 2009-yilda chop qilingan.

Tarixiy taraqqiyotning uzluksiz rivojlanishi, iqlim sharoitining yaxshilanishi, ishlab chiqarish kuchlarining asta-sekin joylashishi natijasida Xorazm voxasi ham insoniyat tomonidan o`zlashtirildi. Arxeologik ashylarning guvohlik berishiga qaraganda, insoniyat Xorazm voxasining markaziy va janubi-g`arbiy qismi hududlarini ancha avval o`zlashtirgan ( Aqchadaryo xavzası, Tuyamo`yin zonası)<sup>3</sup>.

---

<sup>3</sup> Sobirov.Q “Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshoatlari” (Mill.avv VI-milodiy IX asrlar) 166-167-b T: “Fan” 2009

Xulosa qilib aytganda Xorazm vohasini har tomonlama rivojlantirishda innovatsion loyihalarning ahamiyati juda ham katta chunki bu loyihalar nafaqat Xorazm viloyatini balki respublikamizning ham iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham respublikamizda har yili innovatsion loyihalar yarmarkalari tashkil qilina boshlandi. Tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki ma`naviyatsiz bironta mamlakat va inson o`zligini topgan emas. Ma`naviy-marifiy jarayon qanchalik yuksak bo`lsa, o`sha joyda o`sish, rivojlanish, barkamollik mavjud bo`lgan.

## **1.2. Xorazm etnologiyasini rivojlantirishda innovatsion loyihalarning ahamiyati.**

Xorazm viloyatida etnologiyani rivojlantirishda Urganch Davlat Universiteti “Tarix” kafedrasi qoshidagi “Xorazm etnologiyasini tadqiq qilish markazi” tashkil

etilgan bo`lib, ana shu qisqa davr mobaynida markaz tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi. Masalan 2014-yil 27-yanvardan 29-yanvargacha O`zbek turizm Xorazm filiali bilan hamkorlikda UrDU tarix fakulteti binosida “Xorazm vohasi aholisining urf-odatlari va an`analari” mavzusida seminar trening o`tkazildi. Shu yilning fevral oyida esa Xorazm milliy taomlari mavzusida seminar trening tashkil qilindi. 2014-yilning 14-mart kuni “Xorazm etnologiyasini tadqiq qilish markazi” a`zolari Xorazm viloyati innovatsion texnologiya loyihalari ko`rgazmasida o`zining “Etnoxorazm” loyihasi asosida ishtirok etdi.

2014-yil 15-mart kuni esa Navro`z ayyomiga bag ishlab “O`lmas an`ana va qadriyatlar” mavzusida professor-o`qituvchilar va talabalarning an`anaviy konfrensiyasi tashkil etildi. Konfrensiyada ishtirok etganlarning ma`ruzalari to`plam shaklida nashr etildi. “Xorazm etnologiyasini tadqiq qilish markazi” a`zolari 2014-yilning 27-mart kuni “Milliy an`ana va urf-odatlarni qadrlash” mavzusidagi saylda faol ishtirok etdi va “An`analarning eng yaxshi targ`ibotchisi” diplomini qo`lga kiritdilar. Tadborda markaz qoshidagi “Oykumena” to`garagi a`zolari milliy taomlar, fotoalbomlar, talabalar tomonidan tayyorlangan amaliy san`at buyumlari ko`rgazmasi bilan ishtirok etdilar. Xorazm milliy an`ana va urf-odatlari, qadriyatları aks etgan fotoalbomlar barcha ishtirokchilarning diqqat markazida bo`ldi.

2014-yilning 23-25-aprel kunlari “Xorazm etnologiyasini tadqiq etish markazi” Toshkent shahrida bo`lib o`tgan Innovatsion loyhalar yarmarkasida o`zining ikkita loyihasi bilan ishtirok etdi. Birinchi t.f.n M.Jumaniyozova va B.Abdrimovlar muallifligida “Xorazm an`anaviy taomlari assortimentlarini kengaytirish orqali voha turizmni rivojlantirish” loyihasi bo`lib, bu loyiha bo`yicha 10 mln so`milk shartnomalar tuzildi. Ikkinci loyiha t.f.n Sh.Nurillayeva muallifligida “Xorazm an`anaviy kiyimlari” loyihasi bo`lib, u bo`yicha ham 10 mln so`mlik shartnomalar tuzildi. Bundan tashqari [www.etnoxorazm.uz](http://www.etnoxorazm.uz). sayti tashkil etildi. 2015-yilda esa markaz tomonidan “Xonqa tarixi”, “Etnografik amaliyot dasturi”, “Xorazm an`anaviy taomlar tarixidan”

kabi kitoblar nashrga tayyorlandi. Markaz a`zolari tomonidan esa etnologik mavzularda 20 ga yaqin maqolalar e`lon qilindi.<sup>4</sup>

Xorazm etnologiyasini rivojlantirishda O`zR FA FTQQF M.3-12 shifrli “Xorazmda tarixiy – madaniy obektlar (muqaddas qadamjolar) va ularning shakllanish tarixi” mavzusidagi ilmiy loyihaning o`rni alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu grant ilmiy raxbari t.f.n A.Abdurasulov va tadqiqotchi Z.Abidova tomonidan “Xorazmda tarixiy – madaniy obektlar (muqaddas qadamjolar) va ularning shakllanish tarixi” nomli monografiyasи nashrdan chiqdi.

Xorazm voxasi qadim zamonlardan buyon o`zining muqaddas maskanlari, avliyo-anbiyolari, qadamjolari bilan mashhur bo`lib kelgan. Ayniqsa, VIII asrda Xorazmga Islom dini va madaniyatining kirib kelishi bilan ulug` allomalar, karomatli avliyolar, pirlarga e`toqod kuchaydi. Ular olamdan o`tgach esa, qabrlari obod qilindi. Bu ishda xonlar, beklar, o`ziga to`q kishilar faoliyat ko`rsatadilar. Shu bois Xorazm diyorini ulug` avliyolar yaratgan maskan, “Ming gumbazli” zamin deya ulug`lanadi. Zero, bu maskanda “Jorullox” (Olloxning qo`slnisi) degan ulug` nisbatga erishgan, arab gramatikasining bilimdoni az-Zamaxshariy ulug` allomalar tarbiyalab “Valiytarosh” (Valiylar yaratuvchi) nisbasiga erishgan, tasavvuf ilmida yangi tariqatini yaratgan Najmuddin Kubro, Juvonmardlik tariqatining asoschilaridan biri, buyuk Shayx Sulton Uvays Qaroniy xazratlari qadamjolari mavjuddir.<sup>5</sup>

Mustaqillik sharofati bilan muqaddas qadamjolar ta`mirlanib, islom dini va diniy qadriyatlarimizga aholi orasida e`tibor yanada kuchaydi. Ulug` ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg`inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmuddin Kubro, Paxlovon Mahmud, Bahovuddin Naqshband, So`fi Olloyor, singari avliyo- anbiyolarning qutlug` nomlari, izzatikromi, hurmatu e`zozi o`z joyiga qo`yildi va ularning ma`naviy meroslari atroficha

<sup>4</sup> “O`lmas an`ana va qadriyatlar” mavzusidagi professor –o`qituvchi va talabalarning 2-ilmiy ommabop konfrensiya materiallari. Urganch 2015 y.

<sup>5</sup> Abdurasulov.A, Abidova.Z “Xorazmda tarixiy – madaniy obektlar (muqaddas qadamjolar) va ularning shakllanish tarixi” T: 2016-y B. 4

holisona o`rganilmoqda. Xorazm voxasi qadim zamonlardan buyon o`zining muqaddas maskanlari, avliyo- anbiyolari, qadamjolari bilan mashhur bo`lib kelgan. Ayniqsa, VIII asrda Xorazmga islom dini va madaniyatining kirib kelishi bilan ulug` allomalar, karomatli avliyolar, pirlarga e`tiqod kuchaygan.<sup>6</sup>

Yer yuzida har yili minglab odamlar ochlikdan vafot etadilar, millionlagan kishilar esa to`yib ovqatlanmaganliklaridan aziyat chekadilar. Jahon bo`ylab yuz berayotgan aholining demografik o`sishi esa ularni ichimlik suvi oziq-ovqat bilan ta`minlashdek ulkan vazifani insoniyat yelkasiga yuklaydi. Boz ustiga istemol madaniyatini shakllantirish ham bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanmoqda. Shu sababli olimlar bor imkoniyatlarini ishga solib oziq-ovqat zaxiralarni yaratish istemol uchun yaroqli bo`lgan tabiat ne`matlarini tadqiq qilish ustida bosh qotiradilar. Bu borada etnograflar tomonidan to`plangan ma`lumotlar nihoyatda ahamiyatlidir. Chunki ularning tadqiqotlari inson turmush tarzining barcha qirralariga tavsif beradi. Kishilarning turmush tarzini o`rganar ekanlar, etnologlar taomlarning rang-barangligiga ham e`tabor qaratadilar. Natijada turli xalqlarning taomlari va ularning taom tayyorlash va ovqatlanish ratsionini boyitadi.<sup>7</sup>

Umuman olganda atrofimizni o`rab turgan floranin barcha turlaridan oziq ovqat sifatida foydalanish mumkin. Aytaylik, har bitta giyoh yoki daraxtlarning yaprog`i, poyasi, ildizi yoki mevasi, shuningdek, faunaning ham har bir vakili taom uchun yaroqlidir. Faqat ba`zi xalqlarda iste`mol qilinadigan taomlar bir xalqda iqtisodiy, siyosiy yoki e`tiqodiy qarashlar sababli tanovul qilinmaydi.

Biz gapirmoqchi bo`lgan Xorazm voxasining etnologiyasi ham nihoyatda ko`p qirrali va rang-barang. Agar voxax aholisining o`ziga xos jihatlari butunligicha yoritilsa minglagan kitoblar vujudga keladi. Beba ho kutubxonalar tashkil etiladi. Shunday ekan, sizga taqdim etilayotgan ushbu monografiya ham Xorazm etnologiyasini yoritishga bag`ishlangan bo`lib, unda voxax aholisi tomonidan iste`mol

<sup>6</sup> Abdurasulov.A Abidova. Z “Xorazmdagi qadamjo va ziyoratgohlar” T: 2016 4-5 b

<sup>7</sup> Abdullayev O`I, Matrasulov.O.O, Jumaniyozova M. T “Xorazm an`anaviy taomlari tarixidan” Toshkent. “Yangi Nashr” 2016 y.

qilingan va qilinayotgan taomlarning nomlari, tarixi, pishirilish jarayoni, ular bilan bog`liq urf-odat va irm-sirimlar aks etgan. Nixoyat ushbu monografiya Xorazm an`anaviy oshxonasiidagi transfarmatsiya jarayonlari, shuningdek an`anaviy taomlarning vohada turizmni rivojlantirishdagi o`rni va ahamiyati ham o`z ifodasi topgan.

Albatta, Xorazm zaminida tabiat tomonidan in`om etilgan o`simlik va hayvonlar insonlarning ovqatlanish jarayonlari to`g`risidagi ko`pgina asarlarning dunyo yuzini ko`rishiga sabab bo`lgandir.

Zero, Xorazmliklar o`z zaminidagi har bir giyoh, suv, tuproq va qum, quyosh nurlariyu, oyning xira yog`dusi, olislarda miltiragan yulduz u, yomg`ir-qoridan ham hikmat va shifo izlaganlar.

Axir eng qadimiy kitobimiz bo`lmish Avestoda quyosh, oy, tuproq, olov, suv, o`simlik, go`sht va nonning ulug`lanishi bejiz emasdir. Xorazm pazandachiligini takomil topishida nafaqat xalq tajribasi, balki tabobat olimlarining ham xissasi kattadir. Ko`pgina asarlarda, masalan Abu Rayhon Beruniyning “Saydana”, Abulg`izi Bahodirxonning voxada o`sadigan giyoxlarning shifobaxsh xususiyatlari va ba`zi kasalliklarning davosiga bag`ishlangan “Manafit al-inson” risolasi, Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari va xali bizga ma`lum bo`lmagan qanchadan qancha kitoblarda Xorazm taomlari haqida ko`plab ma`lumotlar keltirilgan.

Mazkur monografiyanı tayyorlashda yuqorida ko`rsatilgan asarlardan xolisona foydalanildi va ulardan tashqari “Avesto” kitobi, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari, rus xarbiylarining kundaliklari, A.N.Samoylovichning “Xiva taomlarining nomlanishi” qo`lyozmasi, B. Do`stjonovning “Xorazm taomlari” risolasi, K.Maxmudovning “O`zbek taomlari” kitobi va keksa otaxon va onaxonlarimizning ma`mulotlaridan keng foydalandik. Bugungi kunda taomlarni har tomonlama o`rganish va yoritish zaruriyati tug`ilildi. Zero voxha taraqqiyotiga jiddiy e`tibor berilayotgan ayni damda viloyatimizga kelib ketayotgan mehmonlar va sayyohlarning soni ham bexisob. Ularni xalqimizning

azaliy va chiroyli taomlari bilan mehmon qilish tanishtirish vazifamizdir. Xorazm-Rus munosabatlari juda qadimiydir. Mashhur rus xorazmshunosi S.P.Tolstov bu munosabatlarni antiq davrlar bilan bog`laydi. Ikkala iqtisodiy va siyosiy masalalarda o`zaro do`stona aloqada bo`lganliklari ham ko`pgina manbalarda ta`kidlanadi. Biroq, XVI asrlarda Xiva xonligida ro`y bergan betartib hayot va qavmlar tarkibining o`zgarishi qadimgi Xorazmning qudrati va siyosiy maydondagi obro`siga putur yetkazadi, shuningdek, jahon arenasidagi gegemonlik kayfiyati Rossiyaning ham O`rta Osiyoga bo`lgan munosabatini keskin o`zgartiradi. Natijada, XVI asrning boshlaridanoq Xiva xonligiga turli maqsadlarda rus elchilari tashrif buyura boshladi.

XX asrning boshlariga qadar xonlikda bo`lgan rus elchilari voxha haqida shu qadar ko`p ma`lumotlar to`pladilarki, ularda axolining etnik tarkibi, turmush-tarzi, urf odatlari, uy-joylari, maxallachilik va oila munosabatlari, shuningdek kiyim-kechak va taomlar aks etgan edi. Rus sayohatchilari, elchilari, harbiylari garchi noxolis maqsadlarda va ulkan rejalar bilan bu o`lkaga tashrif buyurib, ma`lumotlar to`plagan bo`lsalarda, bugungi kunda ularning asarlari ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etmoqda. Ammo rus mualliflarining hammasi ham o`zgalar yurtini bosib olish va xalqni talash siyosatidan manfaatdor emas edilar. Faqat, siyosiy xukumatgina ularning ma`lumotlaridan ustalik bilan foydalanar edi. Xiva xonligiga tashrif buyurgan rus xarbiylaridan biri A.N.Samoylovichdir. U Peterburg Universiteti Shar tillari fakultetining arab-fors, tatar-turk tillari bo`limida taxesil olgan. A.N.Samoylovich Xorazmda ilmiy safarda bo`lib, voha folklori etnografiyasi va shevalariga oid materiallarni to`plash, Xiva xonligida xukm surgan madaniy hayot va adabiy muxitni xolisona sharhlab, o`sha davrning rus nashrlarida e`lon qilishi juda katta ahamiyatga egadira. 1908 yilda Xiva xonining xuzurida bo`lgan bu muallif dastlab xonlikning kutubxinasi, so`ngra axoli tomonidan iste`mol qilinadigan taomlar bilan qiziqqan. U shaxsan Madaminboyning yordami bilan Xiva taomlari to`g`risida ma`lumotlar to`plagan va uni “Xiva taomlarining nomlanishi” deb atagan. A.N.Samoylovichning kundaligi qo`lyozma xolatida Sank-Peterburgdagagi Satliqov-Shedrin nomli Davlat

publitsistika kutubxonasining bo`limida 671 fond N:125 delo bilan saqlanmoqda. “Xiva taomlarning nomlanishi” deb atalgan bu qo`lyozma 90 varaqdan iborat. Xorazm Ma`mun Akademiyasining katta ilmiy xodimi t.f.n A. Abdurasulov ushbu qo`lyozmadan nusxa ko`chirib kelgan.

A.N Samoylovich Xiva taomlari haqida ma`lumot to`plar ekan, O`rta Osiyo etnografiyasini yaxshi o`rganilmaganligi, bor ma`lumotlar uzuq-yuluq tarzda u yoki bu adabiyotlarda betartib yotganligini ta`kidlaydi. Shuningdek, u mavjud adabiyotlar ilmiy xarakter kasb etmasligini ham uqtiradi. Muallif o`zi qo`l urgan mavzu tavsifiy emas ilmiy xarakter kasb etishini aytib, balki mening yozganlarim kelgusida yaratiladigan ilmiy ishlar uchun muxim turki bo`lar deydi<sup>8</sup>. Shu bilan u faqat ilmiy maqsadda ma`lumot to`playotganini ham ta`kidlaydi. A.N Samaylovich to`plagan materiallarini nashrdan chiqarish maqsadida bo`lgan.

Ammo, nimagadir bu maqsadi amalga oshmasligini bilgan holda o`z qo`lyozmasida shunday deydi: “Agar kimda –kim mening ishimni qo`liga olib, uni Xiva atroflaridan to`plagan materiallari asosida to`ldirsa mammuniyat bilan aytardimki, mening chop qilish haqidagi maqsadim amalgam oshdi”.

Muallif o`z qo`lyozmasida 90 ga yaqin nomlarni tilga olganki, ularning barchasini taom deb ko`rsatgan. Biroq, qo`lyozmani o`qish qavomida biz ularning ayrimlari ichimlik nomlari, ayrimlari esa shirinliklar, ba`zi birlari shifobaxsh dorilar ekanligining guvohi bo`ldik. A.N Samoylovich barcha ma`lumotlarni Madaminboyning aytganlari asosida yozganligini aynan ta`kidlaydi. Extimol, Madaminboy barcha ma`lumotlarni rus tilida aniq yetkazib bera olmaganligi sababli Muallifning ma`lumotlarida chalkashliklar yuzaga kelgandir. Zero, Samoylovich uning o`zi bironta taomning tayyorlanishida ishtirok etmaganligi va ularning ba`zi larinigina tatib ko`rganligini alohida eslatadi.

---

<sup>8</sup> Abdullayev O`I, Matrasulov.O.O, Jumaniyozova M. T “Xorazm an`anaviy taomlari tarixidan” Toshkent. “Yangi Nashr” 2016 y.

Rus muallifi tomonidan yozilgan kundalikni o`rganar ekanmiz, biz bugungi kunda ko`plab foydali taomlar iste`moldan chiqib ketayotganligi, ba`zilari esa butunlay unutilib ketganligi va yangi taomlarning ko`plab kirib kelganligining guvohi bo`ldik. Shu sababli biz mualliflar Xorazm taomlarini o`zida aks ettirgan ushbu risolani yozishga jazm etdik va uni A.N. Samoylovich yorqin xotirasiga bag`ishladik. Rus muallifi istaganidek, uni Xorazm materiallari asosida to`ldirdik, kamchiliklari va xatolarini bartaraf etdik, yangi ma`lumotlar bilan boyitgan xolda nashrga tayyorladik . SHu bilan birgalikda uning ushalmagan orzusini ro`yobga chiqarishdek katta vazifani amalgam oshirdik.

Shu o`rinda biz A.N.Samoylovich kundaligining dastlabki varaqlarining aynan tarjimasini keltiramiz.

“1908 –yilning 25-mayida Xiva xoni Madaminboyning aytganlari asosida ba`zi-bir Xiva taomlarning nomlarini, ularning tayyorlash va iste`mol qilish tartiblarini qisqagina qilib yozib chiqdim. Men o`zimni yozganlarimni va Xivaliklar tomonidan yozilgan boshqa yozuvlarni (taomlar to`g`risidagi) tekshirmadim. Shuningdek, men biror bir taomnin tayyorlanish jarayonida ham ishtirok etmadim. Ularning ba`zi birlarnigina tatib ko`rdim xolos. Shuning uchun men o`zimning ushbu ishimni juda kam o`rganilgan O`rta Osiyo etnografiyasi uchun qo`shimcha material deb xisoblayman. Zero, ushbu ma`lumotlar biz ko`targan mavzu bo`yicha yangi ilmiy ishlarni dunyoga keltirsa ajab emas. Madaminboy menga aytdiki, har bir taomning nomidanoq, u qoshiqda iste`mol qilinadigan suyuq ovqatli yoki qo`lda yeyiladigan quyuq ovqatmi, uni davlat kishilari iste`mol qilishadimi yoki kambag`allarmi, albatta bilsa bo`ladi. Agar shunday bo`lsa, taomlarni bayramona yoki mavsumiy deb belgilash lozim. Aytaylik mening to`plagan ma`lumotlarim shunchaki tavsifiy emas, balki ilmiy xarakter kasb etadi.

Men taomlarning nomlarini akademik V.V.Radlovnning alfavit tartibi asosida yozdim.

Agar kimda –kim mening ishimni qo`liga olib, uni Xiva atroflaridan to`plagan materiallari asosida to`ldirsa mammuniyat bilan aytardimki, mening chop qilish haqidagi maqsadim amalga oshdi.<sup>9</sup>

Biz yuqorida yozganlarimiz A.N.Samoylovichning qo`lyozmasidan aynan tarjimadir. Endi biz muallif yozib qoldirgan va Xiva taomlari deb xisoblagan nomlarni aynan keltiramiz. Garchi u rus muallifi bo`lsada, taomlarning barcha nomlarnin Xorazm shevasida yozgan, shuningdek, ko`pchilik taomlar kimlar tomonidan iste`mol qilinishini ham eslatib o`tilgan.

Go`sht (et), burunch,yog`, gashir, murch, sho`r-su, xamir, bosh-oyoq, qara-yog`, burunch osh, mashti palov, chakma palov, musamma palov, dog`a, govurma et, ayron bulamoq, ak-sho`rpa, ko`mach (kambag`llar taomi), ildirma (kambag`allar taomi), ishlama, unash, un-xalva, utma, navli palov, qayish, qora sho`rva, qatlama, qatti bulamoq, qovurdoq, ko`rma sho`rva, ko`rma-bulamoq, kurmush barak, kavob, kichiri, kurduk (kambag`llar taomi), kulcha, go`k go`mma, go`k barak, go`ja, go`mma, xolva, xilvistir, xiy-xay, xaliki, yaxna, yorma, yumurta barak, non, tuxum go`mma, (kambag`llar taomi), tuxum barak, duzlama, chiy, chalav, chakida, choriq, jizibiron, sho`vla, sutli chay, sutli bulamaq, sut burunchi, suzma palov, sumalak, zigira, zulbiya, shinni, sho`rva, sho`rva burunchi, shuvla osh, paklama, palov, patrak, po`sсиq, barak, bo`g`irsoq, bulamoq, mashava, mavshi, mastava, nalisa (kambag`llar taomi), kulcha jaylak (kambag`llar taomi), qora sho`rva (kambag`llar taomi) kabi taomlar tilga olingan.

Biz A.N Samoylovichning qo`lyozmasidagi qolgan matnlarni aynan tarjima qilmadik. Chunki , ularni tuzatish va to`ldirish zaruriyati tug`ildi. Zero, muallif keltirgan nomlarning hammasi ham ovqat nomi emas, balki ular shirinliklar, ichimliklar va har doim ham iste`mol qilinavermaydigan shifobaxsh dorillardir. Kambag`allar ovqati deb tilga olingan taomlar esa, ba`zi hollarda aholi tomonidan

---

<sup>9</sup> Abdullayev O`I, Matrasulov.O.O, Jumaniyozova M. T “Xorazm an`anaviy taomlari tarixidan” Toshkent. “Yangi Nashr” 2016 y. 3-b.

maxsus tayyorlangan. Shu sababli biz ularni qlassifiqatsiyaladik . Bundan tashqari, monografiyada, taomlar bilan bog`liq urf-odatlar va irim-sirimlar mavzusi, Xorazm oshxonasidagi transformatsion jarayonlar, turizmni rivojlantirishda an`anaviy taomlarning o`rni kabi masalalar ham yoritiladi.<sup>10</sup>

Xorazm voxasi etnologiyasini rivojlantirishda t.f.n Nurillayeva SH.Q tomonidan tayyorlangan “Xorazm an`anaviy kiyimlari” monografiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur monografiya XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmida Xorazm voxasi o`zbeklarining an`anaviy liboslari tarixi va ular bilan bog`liq urf-odat, an`analarni etnoxududiy xususiyatlari taxlil etilgan.

Kitobda muzeylarda saqlanayotgan Xorazm an`anaviy kiyimlari masalasiga alohida e`tibor berilgan. Voxa o`zbeklarining an`anaviy kiyimlarini mintaqada yashovchi boshqa etnoslar, xususan, turkman, qoraqalpoq xalqlarining kiyimlari bilan o`zaro o`xhash hamda farqli etnologik jihatlari ilmiy adabiyotlar va dala yozuvlari asosida taxlil etilgan.

Ushbu monografiya 3 ta bobdan iborat bo`lib birinchi bo`limi: voxaholisining mato tayyorlash usullari va ularning loqal xususiyatlari va muzey fondlari va eksponotlari –milliy kiyim va taqinchoqlar tarixini o`rganishda asosiy manba sifatida kabi mavzulardan iborat.

Ikkinci bobi; erkaklarning an`anaviy kiyimlari: etnik va loqal jihatlar, ayollarning an`anaviy kiyimlari va ulardagи o`zgarishlar, an`anaviy taqinchoqlar va ularning voxaga xos xususiyatlari kabi bo`limlardan iborat.

Uchinchi bobi: kiyim tikish va tayyorlash bilan bog`liq rasm-rusumlar, marosimiy kiyimlar va ular bilan bog`liq urf-odatlar, an`anaviy taqinchoqlar va ular bilan bog`liq magik tasavvurlar kabi bo`limlardan iborat.<sup>11</sup>

Xorazm cheksiz qum arxanlari orasida joylashgan o`chmas mayoq, yashil vox va mashaqqatli taraqqiyot maskani. Tabiat yaratgan jamiki narsalarni muqaddas bilgan

<sup>10</sup> Abdullayev O`I, Matrasulov.O.O, Jumaniyozova M. T “Xorazm an`anaviy taomlari tarixidan” Toshkent. “Yangi Nashr” 2016 y. 5-6 b.

<sup>11</sup> Nurillayeva Sh.Q “Xorazm an`anaviy kiyimlari” Toshkent “Yangi nashr” 2013 y

va ulardan oqilona foydalanuvchi, yaratuvchan kishilar yurtidir. Xorazm voxasi o`zining har tomonlama rivojlanishida etnologiya faninig o`rni va ahamiyati kattadir. Qadimgi davrlardan ma`lumki Xorazm aholisining kiyinishi, ovqatlanishi yoki boshqa etnologik xususiyatlari bilan boshqa elatlardan ajralib turgan.

Xorazm viloyatida etnologiyani rivojlantirishda Urganch Davlat Universiteti “Tarix” kafedrasи qoshidagi “Xorazm etnologiyasini tadqiq qilish markazi” tashkil etilgan bo`lib, ana shu qisqa davr mobaynida markaz tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi. Masalan 2014-yil 27-yanvardan 29-yanvargacha O`zbek turizm Xorazm filiali bilan hamkorlikda UrDU tarix fakulteti binosida “Xorazm vohasi aholisining urf-odatlari va an`analari” mavzusida seminar trening o`tkazildi.

### **1.3. Xorazmda turizmnri rivojlantirish sohasidagi amalga oshirilgan innovatsion loyihalar.**

Xorazm turizm imkoniyatlari boy viloyat. Uning hududida joylashgan qator tarixiy obidalar asrlar davomida tadqiqotchilar va sayyohlarning e`tiborini o`ziga jalg qilib kelmoqda. Ammo keyingi davrlarda viloyatdagi tarixiy obidalarni saqlash ishlariga jiddiy e`tibor qaratilmadi, ularni rekonstruksiya qilish va zamonaviy shakllarni yaratish borasida esa aslo bosh qotirilmadi desak yanglishmaymiz.

Shu sababli Prezidentimiz I.A.Karimov 2013-yilning 20-mart kuni “Xorazm viloyatida 2013-2015-yillarda sayyohlik sohasini rivojlantirish dasturi to`g`risida” gi qarorini imzoladi. Ushbu xujjat doirasida sayyohlik inshoatlarini barpo etish va rekonstruksiya qilish, sayyohlikning transport infratuzilmasini taraqqiy ettirish, turistik marshurutlar, yangi yo`nalishlar, maxsulotlar va xizmatlarni ishlab chiqish ko`zda tutilgan. Xullas dastur doirasida viloyatda umumiy miqdori 86,76 milliard AQSH dolloriga teng 118 ta loyiha amalga oshirilishi ko`zda tutilgan. Ana shu mablag` asosida turistik xizmatlar, ya`ni eksportlar, sayyohlar soni va mehmonxonalar o`rnini oshirish nazarda tutilgan. 2012-yilning 2-fevralida esa Xorazm viloyati hokimligi tashabbusi bilan O`zbekiston Respublikasi Davlat mulki binosi qo`mitasida tashkil etilgan biznes-forumda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish va turistik xizmatlarning eksport potensialini oshirish bo`yicha “2012-2015-yillarda amalga oshirilishi mo`ljallangan manzilli chora-tadbirlari” to`g`risidagi dastur loyihasi ishlab chiqilgan edi. Unga asosan viloyatdagi mavjud tarixiy obektlar negizida turli xildagi arxeologik topilmalar, milliy kiyimlar, milliy cholg`u asboblari, milliy madaniyat osori-atiqalardan non, guruch, qovun-tarvuz va boshqa shu kabi yo`nalishlarni o`zida mujassamlashtirgan muzeylar, suratlar galereyasi, turistlar uchun restoran va ko`ngil ochar maskanlar xizmatlarini, milliy hunarmandchilik buyumlari va ularni tayyorlash jarayonlari ko`rgazmalarini tashkil etish viloyatda ekoturizmni rivojlantirish uchun cho`l hududlarida kichik tuyalar karvonlarini tashkil etgan holda turistlar sayohatlarini uyushtirish, cho`ldagi o`simliklar, qum barxanlari manzaralarini tomosha qilish uchun turistlarni jalg etish rejalashtirilgan edi. Aynan, Bog`ot

tumanidagi Qalajiq qal`ani Markaziy Osiyodagi yagona “O’lik dengiz” da volanish va sog`lomlashtirish turistik kompleksiga aylantirish, “Xozarasp qal`asini” atrofi infratuzilmasini shakllantirish (magazinlar, umumi ovqatlanish shaxobchalar, suvinerlar sotiladigan lavxalar) va unga turistlarni jalb qilish, Xiva tumanidagi “Bog`i shamol”, “Chor dara” kabi xon bog`i xududlari samarali loyihalarni amalga oshirish ishlari olib borilmoqda.

Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi asosida 2013-2015-yillarda jami 200 ta loyihani amalga oshirish rejalashtirilgan. 2015-yil 1-oktabr holati bilan 100 ta loyiha to`liq bajarildi, 52 ta loyihada ishlar davom etmoqda. Dasturning infratuzilmasini rivojlantirish bo`yicha 118 ta chora tadbirlar amalga oshirilishi belgilangan bo`lib, 2015-yil chorak yakuni bo`yicha 80 ta loyiha to`liq amalga oshirildi. Shu bilan birga doimiy xarakterga ega va qolgan 32 ta loyihada ishlar davom etmoqda. Bu ishlar 5 ta yo`nalishda amalga oshirilmoqda. Bular: infratuzilmani rivojlantirish, hududdagi barcha madaniy meros, arxeologik va boshqa turistik obyektlarda yagona tasdiqlangan namuna bo`yicha axborot tablolarini va ko`rsatkichlarini o`rnatish, turistik toifag mansub transport vositalarini sotib olish, Xiva-Urganch yo`lidagi sobiq avtobekat negizida transport vositalari parki va texnik xizmat ko`rsatish shihobchasi tashkil etish, Xiva shahri mustaqillik ko`chasida bir vaqtning o`zida 15 ta yengil avtotransport vositalarga xizmat ko`rsatuvchi maxsus avto to`xtash joyi tashkil qilish<sup>12</sup>.

Hududning tur-marshrutlari va xizmatlarini takomillashtirish bo`yicha ham ishlar davom etmoqda. Ushbu yo`nalishda 45 ta loyiha amalga oshirilishi belgilangan. 29 ta loyiha amalga oshirildi, 8 ta loyihada ishlar davom etmoqda.

Jumladan: Xazarasp tumanidagi “Xazarasp qal`a” qal`asi negizida turistik majmua tashkil qilish, Shovot tumanidagi “Katqal`a” qal`asi atrofida piyoda yo`lakchalar tashkil qilish, ochiq drenaj tizimlari holatini yaxshilash, obodonlashtirish hamda magazinlar va ovqatlanish shahobchalar tashkil qilish, X.Devonov kinoteatri negizida

---

<sup>12</sup> [www.Ziyonet.uz](http://www.Ziyonet.uz)

zamonaviy 3D formatdagi kinoteatri tashkil qilish, “Ota darvoza” yonida 20 ta qurilmani olib tashlagan holda 500 o`rinli amfiteatr qurish, hududning madaniy ko`ngilochar ob`ektlarida rangli lazer shou tizimlarini o`rnatish shu jumladan: amfiteatrda “Ichon qal`a” fonini yaratish, Barcha madaniy meros ob`ektlarida dekorativ yoritish va illyuminatsiya tizimlarini o`rnatish, Xiva tumanid zamonaviy bouling markazi qurish loyihalarini takomillashtirish va yakunlash choralarini ko`rilmoxda. Vohaning turistik potensialini namoyish qilish ishlarini amalga oshirish bo`yicha 10 ta loyiha amalga oshirish belgilangan. Sayyoqlik uchun qo`shimcha ob`ektlar infratuzilmasini yaxshilash yo`nalishda 31 ta loyiha amalga oshirish belgilangan. Shundan 18 tasi to`liq amalga oshirildi. 6 ta loyihada ishlar davom etmoqda. Turizm sohasi mutaxassislarini tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish yo`nalishida 12 ta Loyiha amalga oshirilgan, qolgan ikki loyiha bo`yicha ishlar davom etmoqda. Tarixiy madaniy meros ob`ektlarni restavratsiya qilish va holatini yaxshilash bo`yicha bugungi kunda 17 ta madaniy meros obektida ta`mirlash va tiklash ishlari olib borildi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining maxsus qarori bilan tasdiqlangan “2013-2015-yillarda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish” dasturi soha taraqqiyotiga qaratilgan asosiy dasturilamaldir. Unga muofiq 2013-2015 yillarda jami 214,3 mlrd so`milk 204 ta loyiha amalga oshirilishi ko`zda tutilgan.

Ma`lumki, Xorazm voxasi etakror tabiat, YUNESKO ro`yxatiga kiritilgan noyob madaniy va tarixiy obidalari, infratuzilma tarmoqlari bilan O`zbekistonning yuksak sayyoqlik salohiyatiga ega bo`lgan hududlaridan xisoblanadi. Shu sababli viloyatda turizm sohasini yanada rivojlantirish ishlari izchil davom ettiriladi. Jumladan, kelgusida yana 25 ta yangi mehmonxona qurish va mavjud 5ta mehmonxonani kengaytirish xisobidan ulardagi o`rinlar soni 2 ming 100 tadan 3 ming 170 taga yetkaziladi. Shuningdek, 22 ta madaniy-tarixiy meros obektida ta`mirlash va tiklash ishlari bajariladi. Bog`ot, Xonqa, Yangibozor, va Urganch tumanlarida

Amudaryo sohillarida, G`ovuqko`l va Eshonravot, ko`llari bo`yida sog`lomlashtirish –sayyohlik majmualari barpo etiladi.<sup>13</sup>

Biznes-forumda ko`rsatilgan loyihamalar ichida Xorazm nonlari, taomlari va boshqa oziq-ovqatlarning tarixini yorituvchi muzeylar va an`anaviy ovqatlanish shaxobchalarini tashkil etish va sifatini yaxshilash masalasi ham keltirilgan edi. Zero, bu region o`ziga xosligi ham uning etnografiyasidadir. T.f.n M.Jumaniyozovaning “Xorazm an`anaviy taomlari assortimentlarini ko`paytirish orqali vohada turizmni rivojlantirish” loyihasi viloyatda turizmni rivojlantirishga katta xissa qo`shgan loyihamardan biri hisoblanadi. Loyihada voxada turizmni rivojlantirish borasida bir qancha takliflar keltirib o`tilgan.

Ma`lumki, Xorazm taomlari va bu regiondagagi iste`mol madaniyati respublikamizning boshqa hududlaridan ancha farq qiladi. Vohaga tashrif buyuruvchi chet el sayoxatchilar va respublikamizning turli viloyatlaridan tashrif buyuradigan maxalliy mehmonlarning voxha taomlarini tanovul qilish masalasini xal qilish lozim. Zero, har qanday xalqning maxalliy taomini iste`mol qilish o`zga xalq vakili uchun ancha noqulayliklar tug`dirishi mumkin. Albatta, Xorazm an`anaviy taomlarining assortimentlarini ko`paytirish ularning sifatini yaxshilash va zamonaviy dizaynlar berish yo`llari orqali ham turizm sohasini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud.

Buning uchun turistik komplekslar atrofida ovqatlanish shaxobchalarini tashkil etish zarur. Bunday xizmat turlari xozir ham faoliyat ko`rsatmoqda. Ammo, mavjudlari kuchli rekonstruksiyaga muxtoj, yangilarini esa zamonaviy asoslarda yaratish zarur.

Hozirgi kunda viloyatimizda mavjud bo`lgan an`anaviy oshxonalarda aynan Xorazmga xos ba`zi bir an`anaviy (tuxum barak, palov, suzma, go`mma) taomlarinigina uchratishimiz mumkin xolos. Qolganlari esa xo`randalarning taklifiga binoan yoki bozori chaqqon taomlar bilan to`ldirilgan. Albatta, bunday xolat ovqatlanish shaxobchalar uchun yaxshi imkoniyat va katta mablag` xisoblanadi. Biroq, Xorazm an`anaviy taomlarini o`zida to`liq qamray olgan va an`anaviy turistik

<sup>13</sup> Mirziyoyev Sh.M. “Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz”. T: “Ozbekiston” 2017 –y.

kompleksi ko`rinishida yaratilgan oshxonalar sayyoohlar diqqatini jalb qilishi muhumdir. O`ylaymizki bunday oshxonalar albatta, sayyoohlar bilan to`la bo`ladi va uning madaniy saviyasi ham yuqori darajaga ko`tariladi.

Xo`sh, Xorazmda turizmni rivojlantirishda an`anaviy taomlarning o`rni qanday degan savol tug`iladi.

*Birinchidan* ovqatlanish shaxobchalari mashxur tarixiy yodgorliklarning kompleksiga kiritlishi lozim.

*Ikkinchidan* oshxonalarni milliy uslubda qurish yoki rekonstruksiya qilish kerak.

*Uchunchidan* an`anaviy taomlar ro`yxatini tuzish va ularni klassifiqatsiya qilish shart. Chunki Xorazm keskin kontinental iqlim hisoblanib, qish qaxraton, yoz esa jaziramadir. Shu sababli bu yerda o`ziga xos iste`mol madaniyati fasllarga qarab shakllangan. Demak, oshxona xodimlari qish, yoz, bahor va kuz taomlarini yaxshi farqlay olishlari lozim. Aks holda turist yoki mahalliy mehmonning noroziligiga sabab bo`lishi mumkin. Ularning noroziligi esa o`z navbatida turizm salohiyatiga putur yetkazadi. Ana shunday salbiy oqibatlarga yo`l qo`ymaslik uchun ovqatlanish shaxobchalari xodimlarini an`anaviy taomlar tarixi, iste`mol madaniyati bilan tanishtiruvchi o`quv qo`llanmalar va o`quv qurslari tashkil etish zarur. Demak, maxsus ofitsiant-gitlar tayyorlash va shuningdek ularning milliy liboslarini ham yaratish zarur.

To`rtinchidan eng asosiy sayyoohlarning voxaga kuz va bahor faslining dastlabki oylarida tashrif buyurishini xisobga olib, aynan shu davrda iste`mol qilinadigan ovqatlarga diqqatni jalb qilish lozim. An`anaviy taomlarning yangi dizaynlarini yaratish zarur.

Beshinchidan oshxonalarning ichki qismini milliy jixozlar bilan ta`minlash kerak (maxalliy yog`ochlardan tayyorlangan xontaxtalar, Xorazm an`anaviy matolaridan ishlangan ko`rpachalar, maxalliy sopol idishlar).

Turistik sayohatlar mavsumida mehmonxona oshxonalarida milliy taomlar ko`rgazmasi tashkil etish ham foydadan xoli emas. Ba`zi bir ovqatlanish shahobchalarida an`anaviy taomlar tarixini aks ettiruvchi materiallar bilan boyitilgan muzeylar tashkil qilsa yanada yaxshiroq bo`ladi.

Bundan tashqari t.f.n Y.Raxmonova tomonidan taklif etilgan “Xiva: Madaniy meros an`analari va zamonaviylik”(sayyoohlar uchun tarixiy-etnografik ocherk)” loyihasi ham turizm rivoji uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Loyihaning assosiy tavsifi shundan iboratki bu loyihada assosiy e`tibor sayyoohlar uchun Xorazm xalqining hayoti, an`analari, tarixi va boy madaniyati bilan tanishtiruvchi risola tayyorlash muammosiga qaratilgan. Loyihaning yangiligi sifatida shuni aytish kerakki yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyoohlarning o`lka turmushi bilan tanishtiruvchi kitoblarga bo`lgan extiyoji to`ldiriladi. Ushbu risola sotuvdagagi bir taraflama yondoshuvdagagi ma`lumotlarni jamlagan kitoblardan farq qilib, unda Xiva shahri bilan birgalikda shaharliklar hayotining an`analari, o`zgarishlari yoritib berilgan. Illyustratsion suratlar bilan albomlar tayyorlanilgan. Risola rus, ingliz va fransuz tillariga o`giriladi. Mazkur risola sayyoohlar uchun mo`ljallangan bo`lib xorijliklarni yurtimizning biy tarixi va madaniyati bilan tanishtirishda muxum ahamiyatga ega. O`zbekturizm milliy kompaniyasining amaliy faoliyatida, shuningdek xalqimizning ulkan madaniy meros, madaniyatimiz bilan tanishtirish maqsadida qo`llash mumkin.

Bu loyihada Xiva shahrining paydo bo`lishi, shaharda kechgan siyosiy jarayonlar, shaharliklar savdosi va dexqonchiligi, hunarmandchilik an`analari, Xiva milliy taqinchoqlari, maorif va ta`lim tarixi, musiqa san`ati rivoji, zamonaviy Xiva kabi masalalar yoritib berilgan.

Quyoshning taftidan toblanib qaxrattonning zabitiga bardosh bergen, lazgisidan yuraklar larzaga kelib, rux titraydigan qaxramonlar, mardlar diyori. Bugungi kunda ham Xorazm ko`plab mashaqqatli mexnatlar evaziga yanada jozibador va maftunkor tusga kirmoqda. Zero, turizm infratuzilmasini rivojlantirish viloyatni butun dunyoga mashhur qila oladi va bunga yetarlicha asos bor. Bir zamonlar moxir jangchilar,

betakror shevasi, tilni yoradigan qovunlari, yuqori sifatli guruchlari, Karvak olmalari, Xiva anorlari, Bog`ot uzumlari bilan mashhur bo`lgan Xorazm bugungi kunda shifobaxsh taomlari bilan bilan yana shuxrat supasiga ko`tarilsa ajabmas.<sup>14</sup>

Davletov S.R. tomonidan “Xorazm vohasida turizm sohasini kompleks rivojlantirishning asoslari” nomli ilmiy loyihasi turizmni rivojlantirishni ilmiy jihatdan olib bergan. Xorazm viloyatida 20 ga yaqin arxeologik yodgorliklar, 100 dan ortiq tarixiy obidalar va shahar tarixiy yodgorliklari bilan birga o`rta asr etnografik muhiti mavjud. Jaxon turizmi bozorida O`zbekiston ham o`z nufizi salohiyatiga ega. Chunki mamlakatimizda 1548 dan ortiq arxitektura yodgorliklari ro`yhatga olingan. Ularning asosiy qismi shaharlarda joylashgan. O`zbekiston turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo`lib, o`zining qulay strategik o`rni, jannatmakon tabiat, sharoiti tufayli jahon madaniyatida o`ziga xos o`rin egallaydi, hamda arxitektura – me`morchiligining noyob yodgorliklari tarixi bilan bellasha oladi. Xalqimizning o`ziga xos milliy taomlari g`oyat go`zal, antiqa urf-odatlari, ochiq yuzli va mehmondo`stligi butun dunyo aholisini o`ziga jalb qiladi. Jahon turizm bozorida O`zbekiston o`zining Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz singari bir qancha tarixiy shahrlariga va yodgorliklariga egadir.<sup>15</sup>

Xulosa qilib aytganda Xorazm vohasini har tomonlama rivojlantirishda innovatsion loyihalarning ahamiyati juda ham katta chunki bu loyihalar nafaqat Xorazm viloyatini balki respublikamizning ham iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham respublikamizda har yili innovatsion loyihalar yarmarkalari tashkil qilina boshlandi. Tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki ma`naviyatsiz bironta mamlakat va inson o`zligini topgan emas. Ma`naviy-marifiy jarayon qanchalik yuksak bo`lsa, o`sha joyda o`sish, rivojlanish, barkamollik mavjud bo`lgan.

<sup>14</sup> Abdullayev O`I, Matrasulov.O.O, Jumaniyozovalarning M. T “Xorazm an`anaviy taomlari tarixidan” Toshkent. “Yangi Nashr” 2016 y.

<sup>15</sup> Davletov S.R. tomonidan “Xorazm vohasida turizm sohasini kompleks rivojlantirishning asoslari” Xiva.: 2010 y

Xorazm cheksiz qum arxanlari orasida joylashgan o`chmas mayoq, yashil vox va mashaqqatli taraqqiyot maskani. Tabiat yaratgan jamiki narsalarni muqaddas bilgan va ulardan oqilona foydalanuvchi, yaratuvchan kishilar yurti. Viloyatni svilizatsiya bilan bog`lashga to`sinqinlik qiluvchi tabiiy to`sinqalar bo`lishiga qaramasdan o`zini madaniyat beshigiga aylantira olgan jozibador o`lka. Bugungi kunda ham Xorazm ko`plab mashaqqatli mexnatlar evaziga yanada jozibador va maftunkor tusga kirmoqda. Zero, turizm infratuzilmasini rivojlantirish viloyatni butun dunyoga mashhur qila oladi va bunga yetarlicha asos bor.

Xorazm turizm imkoniyatlari boy viloyat. Uning hududida joylashgan qator tarixiy obidalar asrlar davomida tadqiqotchilar va sayyoohlarning e`tiborini o`ziga jalb qilib kelmoqda. Xorazm viloyatida etnologiyani rivojlantirishda Urganch Davlat Universiteti “Tarix” kafedrasи qoshidagi “Xorazm etnologiyasini tadqiq qilish markazi” tashkil etilgan bo`lib, ana shu qisqa davr mobaynida markaz tomonidan bir qancha ishlar amalga oshirildi.

## **II bob. Xorazm tarixini yoritishga oid davlat grantlari va ularning natijalari.**

### **2.1 Xorazmning davlatchilik tarixiga oid ilmiy loyihamlar va ularning natijalari**

Davlatchilik tarixi mavzusи haqida gap ketganida Islom Karimovning o`zbek davlatchiligi tarixining obro`-e`tiborini o`z o`rniga qo`yishda, uni yuzaga chiqarish bilan bog`liq tadbirlarni amalga oshirishdagi xizmatlarini alohida ta`kidlash zarur. Chunonchi 1997-yili Xiva shahrining 2500 –yilligini nishonlash kunida Islom Karimov o`zbek davlatchiligi 2700 yillik tarixga ega ekanligini butun dunyoga rasman e`lon qilgan birinchi olim va milliy rahbar bo`ldi. Bu bilan davlatchiligidan tarixiy ibtidosi masalasiga uzil-kesil ravshanlik kiritildi. Bundan tashqari, Islom Karimov umuman o`zbek xalqi tarixini, xususan, davlatchilik tarixini o`rganishning asosiy masalalariga bag`ishlangan “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” nomli alohida asarning ham muallfidir.

Millod boshiga qadar kechgan asrlarda o`zbek davlatchiligi rivojida yer yuzida ilk davlatchilik o`choqlaridan bo`lmish Yaqin va O`rta Sharqdagi makonlarda (Misr, Jazira, Finikiya, Falastin, Suriya, Eron va boshqalar) Hindiston, Xitoy, Yunonistonda ham kechganidek jarayon yuz bergen. Biz alohida viloyat, ichki mintaqa, xatto shahar doirasidagi davlatchilik munosabatlarini nazarda tutmoqdamiz. Shuning uchun to Kushoniylar zamoniga qadar Xorazm, Baqtriya, Parfiya, Farg`ona, Toxariston davlat birliklari ko`p hollarda alohidalik maqomida faoliyat ko`rsatganlar. Mazkur qatorda Xorazmning mavqeyi boshqalarga nisbatan sezilib turgan.<sup>16</sup>

Mamlakatimiz tarixiga oid eng qadimgi yozma guvohliklarni o`zida mujassamlashtirgan “Avesto”da mintaqaning Xorazm (Kairizem,Ayranamovejo), Marv(Mouru), Niso(Nisaya), Ariya(Xarayva) kabi bir qator tarixiy viloyatlari nomi tilga olingan. Bunda voqealar bayoni Axura Mazda nomidan berib boriladi: “Men Axura Mazda, eng afzal makon va mamlakatlar sirasidan Ayranam veyjoni, ...so`ngra

---

<sup>16</sup> A. Ziyo “O`zbek davlatchilik tarixi” T: 2001-y 307-308 b

sog`dlar yashovchi Gavani, keyin esa Mouruni, to`rtinchı bo`lib Baxdini, ...beshinchı bo`lib Mouru va Baxdi oralig`idagi Nisayani... yaratdim”<sup>17</sup>

Bizga ma`lumki Xorazm O`rta Osiyo hududidagi ilk davlatchilikga tamal toshi qo`yilgan maskanlardan biri hisoblanadi. Xorazmning qadimiy shaharlaridan biri Xiva shahri hisoblanadi Xiva O`rta Osyoning qadimiy va yirik tarixiy shaharlaridan biridir. U Markaziy Osyoning g`arbidagi Orol dengizining janubiy tomonida, Quyi Amudaryo hududida joylashgan. Bepoyon Qizilqum saxrolari bilan tutash bo`lgan Xiva o`z tarixiy taraqqiyoti davrida bir necha marta tanazzulga yuz tutib, qaddini qayta tiklay olgan shahar. U umuminsoniyat boyligi sifatida qadrlanadi va 1994-yildan buyon YUNESKO tasarrufidadir. Garchi Xiva tarixi qadim zamonlarga borib taqalsada uning xonlik davri tarixiy manbalarda ko`proq aks etgan. Zero, bugungi Xiva va Ichonqal`a aynan Xiva xonligining qo`ng`irotlar sulolasini davri arxitektura yodgorliklari bilan mashhurdir. Shu sababli ana shu davri tarixi tarixshunoslarda ko`proq qiziqish uyg`otgan. Ayniqsa, O`zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin tarixga bo`lgan e`tibor qo`ng`irotlar sulolasini davri voqealariga ancha oydinliklar kiritilishiga sabab bo`ldi.

O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 1998-yil 27-iyuldagagi “O`zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to`g`risida” gi qarori o`zbek davlatchiligi tarixi muammosining maqsadli rivojlanishiga imkon yaratdi. Perizontimiz I.A. Karimov bir gurux tarixchi olimlar bilan uchrashuvidanagi tarix fani borasida bildirilgan fikrlari o`zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi konsepsiyasining yaratilishiga g`oyaviy asos bo`lib, unda “ilmiy nuqtai nazarga tayangan davlatchilik tarixini yaratish” asosiy maqsad sifatida belgilandi. Xiva shahrining 2500 yilligiga bag`ishlangan tantanali marosimda O`zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning so`zlagan nutqida, “Xorazm Ma`mun akademiyasini qaytadan tashkil etish to`g`risidagi” gi farmonida Xorazmning shaharsozlik va davlatchilik tarixini o`rganish masalasi ilgari surildi.

<sup>17</sup> A. Ziyo “O`zbek davlatchilik tarixi” T: 2001-y , Istorija Uzbekistana v istochnikax, s 28.

Xorazmda davlatchilik tarixini o`rganishda t.f.d, professor M.M.Ixxoqovning “Xorazm voxasida qadimiy davlatchilik va svilizatsiya tarixi” mavzusi bo`yicha 2007-yilda bajarilgan ilmiy grand loyihasi Xorazm tarixini yoritishda muhum loyihalardan biri hisoblanadi. Grand loyihasi jami 75 varaqdan iborat bo`lib, foydalanilgan adabiyotlar 58 ta. Mavzuning asosiy mazmuni va yo`nalishi Xorazm vohasida qadimiy davlatchilik va svilizatsiya tarixi, arxeologik yodgorliklar, Xorazmni qadimiy poytaxt shaharlarining paydo bo`lishi o`rganiladigan asosiy obekt xisoblanadi.

Mavzuni o`rganishdagi asosiy maqsad :

1. Xorazm atamasining etimologiyasini aniqlash.
2. Xorazmning qadimgi davrlariga oid ibridoiy madaniyat, Kaltaminor va Tozabog`yop madaniyatlariga oid ma`lumotlarni tarixiy jixatdan taxlil qilish.
3. “Avesto” asaridagi davlatni boshqaruv usullarini ilmiy jixatdan taxlil qilish.
4. Ahamoniylar, Afrig`iylar, Ma`muniylar, anushtegin- xorazmshohlar va undan keyingi davrlarini yoritishdan iborat.<sup>18</sup>

Ushbu loyihaning tadqiqot uslubi yozma manbalardan olingan ma`lumotlarni arxeologik qazishmalar davomida topilgan ashyoviy dalilar bilan taqqoslash.<sup>19</sup>

Xorazm voxasi insoniyat svilizatsiyasining eng qadimiy o`choqlaridan biri hisoblanadi. Xorazm voxasi madaniy jihatdangina emas, balki tabiiy geografik joylashuvi jihatidan ham o`ziga xos xususiyatga ega bo`lib, bu uning taraqqiyotida muhum ro`l o`ynaydi.

Xorazm Ma`mun akademiyasi 2003-2007-yillarda t.f.n S.R.Baratov ilmiy raxbarligida F7.3.14 shifrli “Janubiy Xorazm madaniyatining eng qadimgi va qadimgi tarixi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida antik davr va ilk o`rta asrlarga oid Tosh-qal`a 2 shaharchasi uch-o`choq qo`rg`on sag`anasi, mo`g`illar istelosiga qadar bo`lgan davrga oid Meshekli qal`a qo`rg`oni va Meshekli qo`rg`oni sag`analarida

<sup>18</sup> Ixoqov M.M “Xorazm voxasida qadimiy davlatchilik va svilizatsiya tarixi” 5-6 b. (Grand shifri: A2-057) Xiva 2007-y

<sup>19</sup> Ixoqov M.M (Grand shifri: A2-057 )“Xorazm voxasida qadimiy davlatchilik va svilizatsiya tarixi” Xiva -2007

arxeologik dala ishlari natijalarida bir qator materiallar topilib, kameralar qayta ishlangan. Olingan materiallar tizimlashtirilib, tasniflashtirilgan va interpretatsiyalangan. Loyihaning grafik va chizma ishlari bajarilgan.<sup>20</sup>

Amudaryoning quyi oqimida joylashganligi, unumdon yer, mehnatkash xalq qadimgi davrdanoq dexqonchilikni yuksak darajada rivojlanganligi, bu vohada o`ziga xos madaniy, davlatchilik va etnik birlikni shakllanishiga olib keldi.

Tarixiy manbalarda ta`kidlanishicha, “Katta Xorazm” Markaziy Osiyodagi ilk davlat uyushmasi bo`lib, qadimgi Xorazmdan ancha keng xududlarda, deyarli butun O`rta Osiyoda amal qilgan. Xorazm Iskandar sultanati, Salavkiylar, davlati, Yunon-Baqtriya, Kushonlar davrida o`z mustaqilligini saqlab qolgan.

Qang` saltanatidan birinchi bo`lib Xorazm millodiy III asrda ajralib chiqqan. Xuddi shu davrdan boshlab Xorazmda Afrig`iylar sulolasini hukmronlik qila boshlagan. Afrig`iy davri o`zbek davlatchiligi tarixida aloxida bosqichni tashkil etadi. 995-yilga kelib ma`muniylar sulolasini, 1017-yildan oltintoshlar hukmronligi boshlandi. Xorazm saljuqiylar tomonidan bosib olingach, Anushtegin bu yerga noib qilib yuboriladi.

Xorazm – anushteginiylar davri (1097-1231) nafaqat Xorazm balki Markaziy Osyo mamlakatlari tarixida, o`zbek davlatchiligi tarixida o`ziga xos muhum bosqich hisoblanadi. IX asrda boshlangan Rennesans, ya`ni uyg`onish davri Xorazmshohlar davrida o`zining yuksalishiga erishdi. Mo`g`ullar hukmronligi davrida (1220-1388) Xorazm Jo`ji va Chig`atoy ulusi o`rtasida ikkiga bo`lingan. Amir Temur Xorazmnii o`z saltanatiga qo`shib oldi va bu yerda temuriylar hukmronligi tanaffuslar bilan 1505-yilgacha davom etdi. Nixoyat 1511-yilda Xiva xonligiga asos solindi . bu davlat 1920-yilda Bolsheviklar tomonidan ag`darib tashlangach, Xorazm Xalq Sovet Respublikasi tashkil qilindi. XX asr Xorazmda davlatchilikning so`nggi bosqichi bo`lib , 1924-1925-yillarda O`rta Osiyoda o`tkazilganmilliy-hududiy chegaralanish natijasida tugatildi.

---

<sup>20</sup> S.R.Baratov ilmiy raxbarligida F7.3.14 shifrlisi “Janubiy Xorazm madaniyatining eng qadimgi va qadimgi tarixi” mavzusidagi fundamental loyiha. Ma`mun akademiyasi. 2003-2007 y.

2009-2011-yillarda amaliy tadqiqotlar dasturi doirasida Sh.Matrasulov ilmiy raxbarligida “Janubiy Xorazm o`rta asr shaharlarining moddiy madaniyati tarixi(Xorazm viloyatidagi arxeologik yodgorliklar misolida)” mavzusidagi loyiha amalgam oshirildi. Grant bo`yicha Oxunlar qishloq manzilida qazishma ishlari olib borilib, bir qancha xona izlari aniqlandi. Yodgorlik 2 metr qalinlikdagi qum barxanlari polgacha tozalandi. Poldan asosan sirlangan mayday spool qoldiqlari, kul rang ko`za va chanoq idishlar, shisha idishlar siniqlari topildi. Olingan ma`lumotlar bu yodgorlikda hayot XI-XIII asrlar boshlarida mavjud bo`lganligini tasdiqlaydi.<sup>21</sup>

T.f.n Masharipova.G. “Xiva xonligi tarixi (XVI asrdan to 1920yilgacha)” mavzusi bo`yicha (davlat qayd raqami 39 575.1 09) davlat grant loyihasi Xiva xonligi tarixini yoritishda muhum manbalardan biri hisoblanadi. Bu loyiha 124 varaqdan iborat bo`lib. Illyustratsiyalar soni 14 ta. Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati 122 ta. Mavzuning asosiy mazmuni va yo`nalishi Xorazm vohasi xalqlarining etnik jihatdan kelib chiqishi hududi joylashuvi, kasb-kori, urf-odatlari va turli marosimlarini ilmiy tadqiq qilishidan iborat bo`lib, XIX asr va XX asrning I choragida Xiva xonligining poytaxti bo`lgan Xiva shahri va Xorazm viloyati shahar va tumanlari asosiy obekt hisoblanadi.

Shu davrlar ichida Xiva xonligi davriga oid ko`proq ma`lumotlar saqlangan. Shu sababli Xiva Xonligi davri tarixshunosligini yoritish, turli davrlarda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijalari asosida davlatchilik muammosining o`rganilishiga xaqqoniy baho berish ham davrning muhim vazifalaridan biriga aylandi. Zero, Xiva xonligining Qo`ng`irotlar sulolası davri tarixi Shayboniylar sulolası davriga nisbatan keng o`rganilgan. XIX asr boshi ushbu sulola vakillari hokimiyat tepasiga kelgandan keyin jamiyatda mavjud bo`lgan nisbatan barqarorlik va osoyishtalik jarayoni xonlikning taraqqiy qilishiga asos bo`ladi.

---

<sup>21</sup> Sh.Matrasulov “Janubiy Xorazm o`rta asr shaharlarining moddiy madaniyati tarixi(Xorazm viloyatidagi arxeologik yodgorliklar misolida)” loyiha. “Ma`mun akademiyasi” 2009-2011 y.

Aynan shu davrda Xorazm tarixnavislik maktabi o`z taraqqiyotining yangi bosqichiga ko`tariladi va mahalliy tarixchilar tomonidan xonlik tarixini o`rganishda muhum manba bo`lib tarixiy asarlar yaratiladi. Shu bilan birga, Rossiyadan ko`plab elchilar, savdogarlar, xarbiylar ham xuddi shu davrda xonlikka yuboriladiki, natijada ularning yozgan xisobot, xotira va monografiyalari bugungi kunda xonlik haqida keng ma`lumotga ega bo`lish imkonini beradi. XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, Xiva xonligiga oid ilk yozma manbalar o`rganila boshlangan bo`lsa ham ularning mazmuni kam tadqiq etilgan. XX asrning 50-60-yillariga kelib, arxiv ma`lumotlarini tarixiy adabiyotlardagi ma`lumotlar bilan qiyosiy taxlil qilish imkoniyati yuzaga keldi. Ammo sovet tarixshunosligida Xiva xonligining davlatchilik tarixi alohida ilmiy tadqiqot obekti sifatida o`rganilmaganligi ko`zga tashlanadi. Chunki, bu davrda davlatchilik yagona bo`lgani holda, milliy respublikalarning davlatchiligi yo`l-yo`lakay, u yoki bu davlatning mavjud bo`lganligini qayd etish shaklida tavsiflanar edi. Mustaqillik yillarida mavzuning yoritilishi muhim ahamiyatga ega bo`lib xonlikning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy axvoliga oid asosiy ma`lumotlarni chuqur o`rganish, yangicha qarash va yondashuvlarni umumlashtirish imkoniyatlari vujudga keldi. Xiva xonligining Qo`ng`irotlar sulolasi Qo`ng`irotlar sulolasi davri tarixshunosligrini o`rganishning manbalarini aniqlash, sovet va xorij tarixchilar tomonidan uni o`rganish bosqichlarini tavsiflash, XXI asrda Xiva xonligini o`rganish tarixinining dolzarb yo`nalishlarini tariflashga imkon berdi. Shunday qilib XIX-XXI asrning boshlarida ushbu muammoni kompleks tadqiq etish va koseptual ravishda qayta baxolash tadqiqotlarning yangi yo`nalishlarini belgilab, mustaqil O`zbekiston davlatchiligining ko`p jildli tarixini yaratishga xizmat qiladi.

Xorazm davlatchilik tarixini yoritishda Xiva xonligi alohida ahamiyat kasb etadi. Mustaqillik yillarida Xiva xonligi tarixi bo`yicha bir qancha ma`lumotlar yoritildi. Professor, t.f.n M. Matniyozov tomonidan “Xiva xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o`rnii va ro`li” risolasi ham Xorazm davlatchilik va shaharsozlik tarixini o`rganishda muhim manbalardan biri xisoblanadi.

Xiva shahrining qadimgi qismidagi juda ko`p arxitektura yodgorliklariga boy bo`lgan Ichan-Qal`a sharqning ekzotik shahar timsolini o`zida saqlab qolgan afsonaviy shahardir. Xiva Xorazm viloyatidagi shahar xisoblanib O`zbekistonning shimoli-g`arbida, viloyatning janubida, Amudaryoning chap sohilida, daryodan 40 km janubda, 91 m balandlikda joylashgan. Shahar yonidan Polvonyop (qadimgi Xeykaniq) kanali o`tgan. Xiva O`zbekistonning eng qadimgi shaharlaridan biri. Arxeologik ma`lumotlarda ko`ra, shahar mil.avv V asrda barpo etilgan. Uning nomi shaharning qadimgi qismida joylashgan Xivaq(Xeyvaq) qudug`i bilan bog`liq. Ba`zi tadqiqotchilar shahar nomini Xorazm tiliga yaqin bo`lgan qadimgi osetin tilidagi “Xiauv”- qal`a so`zidan, boshqalar bu atamani antik davrdan Xiva hududidan oqib o`tgan Xeykanik (xozirgi Polvonyop) kanalining o`zgartirilgan nomi bilan bog`laydi.

Xorazmlik tarixchi solnomachi Xudoyberdi Qo`shmuhammad o`zining 1831-yilda yozgan “Dili G`aroyib” asarida Xorazmning qadimgi shaharlarini nomma nom sanar ekan “Bu mamlakatning yana bir qal`asi –Qal`ai Ramildir. Bu qal`aga Som ibn Nuh asos solgan u xozirgi Xivaq nomi bilan mashhurdir” deydi. Xalq rivoyatlarida ham shaharning bunyod etilishi Nuh zamonlariga borib taqaladi.

Bunda Nuhning o`g`li Som bo`lajak shahar yoniga kelib quduq qazdirgan va shu bilan Xivaga asos solingan. Haqiqattan ham Xivaning ishon qal`asida qadimgi Xeyvoq (Xivak) qudug`i saqlanib qolgan. Xiva to`g`risidagi dastlabki ishonchli ma`lumotlar X asrdan boshlab arab, fors tilidagi tarixiy-geografik manbalarda uchraydi. Ishtaxriy (930) Xivani o`sha davrdagi 30 ta shaharlar ro`yxatiga kiritgan. Xiva Yoqut Xamafiy (XIII asr), Nizomiddin Shomiy (XIV asr ) asarlarida ham karvon yo`lida joylashgan shahar sifatida uchraydi.

XVII asrda yashab o`tgan Mahmud ibn Vali bu shahar to`g`risida shunday yozadi: “Xiva keng va bahavo shahar. U shayx Najmiddin Kubro vatanidir. Xiva o`zining tarixiy o`tmishi, me`moriy tuzilishi, obidalarning yaxlit saqlanganligi jihatidan qadimgi shaharlar orasida muhim o`rin tutadi. Yer kurrasida mashhur bo`lgan Afina, Rim, Qohira shaharlariga tengdosh bo`lgan bu shaharning ichan qal`a

qismi (1990) Jahon merosi ro`yxatiga kiritilgan 100 shahardan biri bo`lib dunyoga al-Xorazmiy, Najmiddin Kubro, Shihabuddin Xivakiy, Paxlovon Mahmud, Muhammad Raximxon(Feruz), Munis va Ogahiy kabi buyuk zotlarni yetkazib bergen azim zamin xisoblanadi.

Mil.avv V asr oxirigacha Xiva Xorazm tarkibida Ahamoniylar davlati tasarrufida, so`ngra mustaqil Xorazm davlati tarkibida bo`lgan. Ilk o`rta asrlarda sharqni g`arb bilan bog`lovchi Buyuk ipak yo`li o`tgan. IV asr boshlarida Xorazm soseniyilar tarkibiga kirgan. Bu davrda u qal`a devori bilan o`rab olingan. 712-yilda Xivani arablar istelo qilgan. Arab sayyoxlari Istanriy va Muqaddasiy qo`lyozmalarida keltirishicha Xiva X asrda Xorazm voxasidagi eng yirik shahar bo`lgan. 1221-yildan mo`g`ullar imperiyasi tarkibiga kirgan, 1388-yildan boshlab esa temuriylar sultanati tarkibida, XVI asr boshlaridan 1920-yilga qadar Xiva xonligi poytaxti bo`lgan. Xiva xonligining poytaxti dastlab Vazir, Ko`hna Urganch, Xiva shahri bo`lgan. Xonlik 1511-yildan 1920-yilga 2-fevraliga qadar hukm surgan. Xonlik 1873-yil rus qo`shinlari tomonidan zabit etilib , Gandimiyon shartnomasiga ko`ra, Rossiya imperiyasi protektaratiga aylantirilgan.<sup>22</sup>

XX asrning 70-yillariga kelib Xiva xonligi Qo`g`irotlar sulolasi davri ijtimoiy – iqtisodiy sohalariga oid masalalar umumlashma tadqiqotlarda, ilmiy adabiyotlarda o`z aksini topgan . Xususan, “Istoriya Xorezm” deb nomlangan monografiyaning kirish qismida mavzu tarixshunosligining umumiyligi sharhi, shu jumladan Xiva xonligining Qo`ng`irotlar sulolasi davri ijtimoiy-iqtisodiy sohalarining sovet davrida o`rganilish darajasi yoritilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo`sak davlatchilik tarixi mavzusi haqida gap ketganida Islom Karimovning o`zbek davlatchiligi tarixining obro`- e`tiborini o`z o`rniga qo`yishda, uni yuzaga chiqarish bilan bog`liq tadbirlarni amalga oshirishdagi xizmatlarini alohida ta`kidlash zarur. Islom Karimov o`zbek davlatchiligi 2700 yillik

---

<sup>22</sup> Professor, t.f.n M. Matniyozov tomonidan “Xiva xonligida yashagan xalqlar va ularning xonlik ijtimoiy-siyosiy hayotida tutgan o`rni va ro`li” Urganch. 2004 y

tarixga ega ekanligini butun dunyoga rasman e`lon qilgan birinchi olim va milliy rahbar bo`ldi. Bu bilan davlatchiligidan tarixiy ibtidosi masalasiga uzil-kesil ravshanlik kiritildi. Bundan tashqari, Islom Karimov umuman o`zbek xalqi tarixini, xususan, davlatchilik tarixini o`rganishning asosiy masalalariga bag`ishlangan “Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q” nomli alohida asarning ham muallifidir. Bizga ma`lumki Xorazm O`rta Osiyo hududidagi ilk davlatchilikga tamal toshi qo`yilgan maskanlardan biri hisoblanadi

Mamlakatimiz tarixiga oid eng qadimgi yozma guvohliklarni o`zida mujassamlashtirgan “Avesto”da mintaqaning Xorazm (Kairizem,Ayranamovejo), Marv(Moutu), Niso(Nisaya), Ariya(Xarayva) kabi bir qator tarixiy viloyatlari nomi tilga olingan. Bunda voqealar bayoni Axura Mazda nomidan berib boriladi.

## **2.2. Xorazm Ma`mun Akademiyasi tomonidan amalga oshirilgan davlat grant loyihalarining Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jihatdan rivojlantirishdagi ahamiyati.**

Prezidentimiz I.A.Karimov qayd etganidek “Xorazm asrlar davomida noyob madaniyat va san`at yodgorliklari, beaho qadriyatlar va boy tarix yaratgan maskandir”.<sup>23</sup> Darhaqiqat Xorazmda Sharqdagi ilk ilmgohlardan biri Ma`mun akademiyasi ana shunday beaho vazifalardan birini o`tab bergan. Prezidentimizning tashabbuslari bilan Ma`mun akademiyasining 1000 yilligini nishonlash va uni qaytadan tashkil qilish to`g`risidagi farmonlari ilm ahligi qaratilgan katta e`tiborlardan biri bo`ldi.

Xorazm Ma`mun akademiyasi tomonidan Xorazm tarixini o`rganish bo`yicha bir qancha davalat grant loyihalar ishlab chiqilgan bo`lib ular Xorazmning turli ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy salohiyatini ochib berishda muhum ahamiyat kasb etadi.

T.f.n Masharipova.G. “Xiva xonligi tarixi (XVI asrdan to 1920yilgacha)” mavzusi bo`yicha (davlat qayd raqami 39 575.1 09) davalat grant loyihasi Xiva xonligi tarixini yoritishda muhum manbalardan biri hisoblanadi. Bu loyiha 124 varaqdan iborat bo`lib. Illyustratsiyalar soni 14 ta. Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati 122 ta. Mavzuning asosiy mazmuni va yo`nalishi Xorazm vohasi xalqlarining etnik jihatdan kelib chiqishi hududi joylashuvi, kasb-kori, urf-odatlari va turli marosimlarini ilmiy tadqiq qilishidan iborat bo`lib, XIX asr va XX asrning I choragida Xiva xonligining poytaxti bo`lgan Xiva shahri va Xorazm viloyati shahar va tumanlari asosiy obekt hisoblanadi.

Mavzuning maqsadi shundan iboratki hozirgi davr talablari asosida Xiva xonligi tarixi, davlat boshqaruvi va aholinin etnik tarkibini ilmiy tadqiq qilishdan iborat. Tadqiqot uslubi: Yozma manbalar, arxiv xujjatlari, chop qilingan adabiyotlardan olingan ma`lumotlar, dala yozuvlari va davlatchilik va etnografiyaga oid

---

<sup>23</sup> Karimov I.A Xalq deputatlari Xorazm viloyati sessiyasida so`zlagan nutqi “Xorazm xaqiqati gaz. 1996 y 16-mart”

ma`lumotlarni ilmiy jihatdan o`rganish va taxlil qilish, Xorazm viloyati shahar va tumanlariga ilmiy ekspeditsiyalar uyuşdırış va aholi o`rtasida anketa savollariga javob to`plashdan iborat. Mazkur mavzuning yo`nalishi asosan o`zbek xalqining davlatchilik tarixi Xorazm vohasi, Xiva xonligining tarixiy o`rnini yoritishdan iborat. O`zbek davlatchiligi tarixida yorqin iz qoldirgan Xiva xonligi tarixi bat afsil o`rganildi. Xorazm xonligiga 1511 –yilda asos solindi. 1556-yilda xonlik poytaxti Xiva shahriga ko`chirildi va shu yildan boshlab “Xiva xonligi” deb atala boshlandi.”<sup>24</sup> Xiva xonligida yashagan aholining etnik tarkibi bo`yicha ma`lumot beruvchi muhim loyihalardan biri t.f.n A.Abdurasulov “Xiva xonligi aholisining etnik tarkibi(XIX asr va XX asrning I choragi) mavzusi bo`yicha bajarilgan ilmiy grant loyihasi Xiva xonligini etnik tarkibini yoritishda asosiy ilmiy loyihalardan biridir. Ushbu loyiha 97 betdan iborat bo`lib. Illyustratsiyalar soni 18 ta. Foydalanan adabiyotlar ro`yxati 72 ta. Tadqiqot obekti Xorazm voxasi xalqlarining etnik jihatdan kelib chiqishi, hududiy joylashuvi, urf-odatlari va turli marosimlarini tadqiq qilishdan iborat. Mavzuning maqsadi xozirgi davr talablari asosida Xiva xonligi aholisining XIX asr va XX asrning I choragidagi etnik tarkibini ilmiy tadqiq qilishdan iborat.

Mavzu bo`yicha nashr qilingan ilmiy ishlar ro`yxatiga A.Abdurasulov “Xiva (sayirnomasi)” 2003 y. T.f.n Jumaniyozova M.T “Abu Rayxon Beruniyning lingivistik qarashlari” ilmiy to`plam 2003 y. 5-7 betlar. Kabi 30 ga yaqin ilmiy ishlardan iborat. Bilamizki Xorazm o`zining eng yirik tarixiy memoriy yodgorliklari bilan mashhur hisoblanadi. T.f.n Durdieva G.S “Xorazm me`moray yodgorliklaridagi xattotlik va yog`och o`ymakorligining qadimiy texnologiyasi ilmini kelgusi avlodga yetkazish” (grant loyiha shifri FA-I8-G004) mavzusi bo`yicha ilmiy grant loyihasi memorchilik an`analarini kelgusi avlodga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xorazm tarixini yoritishda arxeologik loyihalarning o`rni ham alohida ahamiyat kasb etadi. Shunday tadqiqotlardan biri millordan.avv.VI asrga oid Xumbuztepa yodgorligi aniqlandi. Bu yerdan topilgan mil.avv.IV asrga oid daxmaning yuqori

<sup>24</sup> Masharipova.G. “Xiva xonligi tarixi (XVI asrdan to 1920yilgacha)” Xiva-2005 y

satxidan sirtida yozuv namunasi bo`lgan sopol bo`lak – “ostrokon” ning topilishi muhim yangilikdir. Sank-Peterburg Davlat Ermitaji mutaxassisi, epigraf-olim Pavel Lure fikriga ko`ra mazkur yozuv qadimgi Xorazm alifbosiningg xarflaridan tashkil topgan. Ushbu topilma qadimgi Xorazm tarixiga doir epigrafik manbalarni yanada boyitadi.

YF1-FA-G003 shrifli “Mustaqillik yillarida Xorazm badiiy san`atining rivoji” nomli grant loyihasi ustida ishlar hozir ham olib borilmoqda. Bu ilmiy grant loyihasi O`zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va Xorazm Ma`mun akademiyasi bilan hamkorlikda olib borilmoqda. Loyihani moliyashtirish 2017-yilda 537230 so`mni tashkilqildi. Bu tadqiqotning asosiy maqsadi : mustaqillik yillarida Xorazm badiiy san`ati aynan tasviriy va amaliy san`atning qayta tiklanishi, rivojlanishi va bugungi kundagi holatini ilmiy jihatdan tadqiq qilish, ilmiy- nazariy xulosalar chiqarish hamda o`ziga xos taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning vazifasi: tasviriy san`at namoyondalari, ularning asarlari va asosiy yo`nalishlar, tasviriy san`atda yosh rassomlar va ular ijodining o`ziga xos jihatlari, tasviriy san`atda tarixiy mavzuning ustuvorligi va uning o`ziga xos hususiyatlari hamda mustaqillik yillarida amaliy san`at turlarining qayta tiklanish jarayonlarini tadqiq qilish. Bu loyiha yuzasida Xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlarda ma`ruzalar bilan bir qancha maolalar chop qilindi.<sup>25</sup>

Jumladan Abdullaev M.S. “Xorazma amaliy san`atining o`ziga xos jihatlari” , “Xorazm Ma`mun akademiyasida ijtimoiy- gumanitar fanlar rivoji”<sup>26</sup>, Tojieva F.J. “Xiva xonligida bunyod qilingan madrasalar tarixi” va “Ta`lim –ma`naviy axloqiy tarbiyaning asosidir” mavzularida ilmiy maqolalar chop qildilar. <sup>27</sup>

---

<sup>25</sup> Abdullaev M.S. YF1-FA-G003 shrifli “Mustaqillik yillarida Xorazm badiiy san`atining rivoji” Xiva. 2017 y.

<sup>26</sup> “Xorazm voxasi O`zbekistonning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy tarixi kontekksida: yangi ilmiy tadqiqot natijalari” anjumani materiallari. –Urganch, 2017-yil

<sup>27</sup> “Xalq bilan muloqot va inson manfatlari yili: mohiyat, maqsad va vazifalar” mavzusidagi ilmiy-amaliy seminari materiallari. –T. 2017. y. 256-257 b.

Hozirgi vaqtda ham arxeologik ekspeditsiyani amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarlik ishlari olib borilmoqda. Hisobot davrida ibodatxona shimoliy-g`arbiy burchagidan va undan shimoldagi aniqlangan daxmadan topilgan manbalar tizimlashtirildi. Ibodatxonadan shimolda to`g`ri burchakli 3 ta yerto`la aniqlandi va o`rganildi. Yerto`lalar qoldiqlari materik ustida joylashgan bo`lib, ibodatxona kurilgungacha (mil.av V asrning boshi) xosil bo`lgan qatlam bilan qoplangan va ishonch bilan ularni mil.avv VI asrga taaluqli deyish mumkin. 2-yerto`la qatlamda odam suyaklari aniqlanib odam suyaklari aniqlanib, bu esa yerto`lalarning zardushtiylik dafn marosimlari bilan bog`liq degan fikrni ilgari surishga imkon beradi. Qazishmalar natijasida mil. avv VI-IV asrlarga oid ko`plab boy va ifodali topilmalar olindi: bular bus-butun saqlangan kosalar, qadaxlar va sopol qozonlardir<sup>28</sup>.

2012-2016-yillarda F1-FA-0-17788 shifrli “Xorazm urbanizatsiyalashgan madaniyatining eng qadimgi va qadimgi tarixi” (janubiy Xorazmdagi arxeologik tadqiqotlar ma`lumotlari asosida) loyihasi doirasida arxeologik tadqiqotlar amalgam oshirilmoqda (t.f.n S.R.Baratov, B.Sadullaev, Sh.Raximov). Mazkur tadqiqot eng quyi qatlamlarda 3 hayotiy bosqichga taaluqli otashgox tozalab ochildi. (Otashgox g`arb-sharq yo`nalishiga ega bo`lib olov izlari yaqqol sezilib turibdi. Otashgoxdan mil.avv V asr mobaynida foydalanilgan bo`lib, ibodatxona vazifasini o`tagan. Otashgox tuzilishiga ko`ra, O`rta Osiyo hududlaridan topilgan antik va ilk o`rta asrlardagi otashgoxlar bilan aynan o`xshashdir va Zardushtiylik dini bilan bog`liqdir. Xumbuztepadan topilgan otashgox O`rta Osiyoda ma`lum bo`lgan tiplar orasida eng qadimiysi xisoblanadi. Xumbuztepadan olingan manbalar Xorazm voxasida Zardushtiylikning vujudga kelishi va taraqqiy qilishi bilan bog`liq bo`lgan ma`lumotlarni yanada boyitadi. Innovatsion dasturlar doirasida Xumbuztepa arxeologik yodgorligi qisman konservatsiya qilinib, turli aggressiv tashqi ta`sirlardan saqlash maqsadida yengil konstruksiya bilan usti yopildi va sayyohlik markaziga aylantirilmoqda.

---

<sup>28</sup> Xorazm Ma`mun akademiyasida bajarilgan (Φ1-ΦA-0-17788) shifrli grantning 2016 yil uchun hisoboti

Xorazm Ma`mun akademiyasi 2003-2007-yillarda t.f.n S.R.Baratov ilmiy raxbarligida F7.3.14 shifrli “Janubiy Xorazm madaniyatining eng qadimgi va qadimgi tarixi” mavzusidagi fundamental loyiha doirasida antik davr va ilk o`rta asrlarga oid Tosh-qal`a 2 shaharchasi uch-o`choq qo`rg`on sag`anasi, mo`g`illar istelosiga qadar bo`lgan davrga oid Meshekli qal`a qo`rg`oni va Meshekli qo`rg`oni sag`analarida arxeologik dala ishlari natijalarida bir qator materiallar topilib, kameralar qayta ishlangan. Olingan materiallar tizimlashtirilib, tasniflashtirilgan va interpretatsiyalangan. Loyihaning grafik va chizma ishlari bajarilgan.<sup>29</sup>

2007-2011-yillarda t.f.n S.R.Baratov ilmiy raxbarligida FA-F8-019 shifrli “Qadimgi Xorazm urbanizatsiyalashgan madaniyatining ildizlari” (mil.av. VIII-V asrlardagi Janubiy Xorazm dafn inshoatlari asosida) mavzusi bo`yicha Meshekli karvonsaroyidan 2 km shimolda 3 ta va 8 km shimoli-g`arbda 1 ta mozor-qo`rg`on o`rganildi. Shuningdek, 1 km shimolda bronza davriga oid sopol qoldiqlari bilan birga manzil izlari aniqlandi.<sup>30</sup>

2009-2011-yillarda amaliy tadqiqotlar dasturi doirasida Sh.Matrasulov ilmiy raxbarligida “Janubiy Xorazm o`rta asr shaharlarining moddiy madaniyati tarixi(Xorazm viloyatidagi arxeologik yodgorliklar misolida)” mavzusidagi loyiha amalgam oshirildi. Grant bo`yicha Oxunlar qishloq manzilida qazishma ishlari olib borilib, bir qancha xona izlari aniqlandi. Yodgorlik 2 metr qalinlikdagi qum barxanlari polgacha tozalandi. Poldan asosan sirlangan mayday spool qoldiqlari, kul rang ko`za va chanoq idishlar, shisha idishlar siniqlari topildi. Olingan ma`lumotlar bu yodgorlikda hayot XI-XIII asrlar boshlarida mavjud bo`lganligini tasdiqlaydi.<sup>31</sup>

<sup>29</sup> S.R.Baratov ilmiy raxbarligida F7.3.14 shifrli “Janubiy Xorazm madaniyatining eng qadimgi va qadimgi tarixi” mavzusidagi fundamental loyiha. Ma`mun akademiyasi. 2003-2007 y.

<sup>30</sup> S.R.Baratov ilmiy raxbarligida FA-F8-019 shifrli “Qadimgi Xorazm urbanizatsiyalashgan madaniyatining ildizlari” (mil.av. VIII-V asrlardagi Janubiy Xorazm dafn inshoatlari asosida) “Ma`mun akademiyasi” 2011-y.

<sup>31</sup> Sh.Matrasulov “Janubiy Xorazm o`rta asr shaharlarining moddiy madaniyati tarixi(Xorazm viloyatidagi arxeologik yodgorliklar misolida)” loyiha. “Ma`mun akademiyasi” 2009-2011 y.

Xorazmda turizmni rivojlantirishga alohida ahamiyat berilmoqda, Ma`mun akademiyasida ham turizmni rivojlantirish borasida bir qancha ishlar amalgalashirilga. Shunda ilmiy loyihalardan biri Ma`mun akademiyasi katta ilmiy hodimi Davletov S.R. tomonidan “Xorazm vohasida turizm sohasini kompleks rivojlantirishning asoslari” nomli ilmiy loyihasi turizmni rivojlantirishni ilmiy jihatdan olib bergan. Xorazm viloyatida 20 ga yaqin arxeologik yodgorliklar, 100 dan ortiq tarixiy obidalar va shahar tarixiy yodgorliklari bilan birga o`rta asr etnografik muhiti mavjud. Jaxon turizmi bozorida O`zbekiston ham o`z nufizi salohiyatiga ega. Chunki mamlakatimizda 1548 dan ortiq arxitektura yodgorliklari ro`yhatga olingan. Ularning asosiy qismi shaharlarda joylashgan. O`zbekiston turizm sohasini har tomonlama rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega bo`lib, o`zining qulay strategik o`rni, jannatmakon tabiat, sharoiti tufayli jahon madaniyatida o`ziga xos o`rin egallaydi, hamda arxitektura – me`morchiligining noyob yodgorliklari tarixi bilan bellasha oladi. Xalqimizning o`ziga xos milliy taomlari g`oyat go`zal, antiqa urf-odatlari, ochiq yuzli va mehmondo`stligi butun dunyo aholisini o`ziga jalg qiladi. Jahon turizm bozorida O`zbekiston o`zining Samarqand, Buxoro, Xiva, Termiz singari bir qancha tarixiy shahrlariga va yodgorlilariga egadir.<sup>32</sup>

Xorazm etnologiyasini rivojlantirishda O`zR FA FTQQF M.3-12 shifrli “Xorazmda tarixiy – madaniy obektlar (muqaddas qadamjolar) va ularning shakllanish tarixi” mavzusidagi ilmiy loyihaning 2012-yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlari bo`yicha hisoboti bo`lib o`tdi. Ushbu grant ilmiy raxbari t.f.n A.Abdurasulov va tadqiqotchi Z.Abidova tomonidan “Xorazmda tarixiy – madaniy obektlar (muqaddas qadamjolar) va ularning shakllanish tarixi” nomli monografiyasi nashrdan chiqdi. Ushbu grant loyihasi jami-80 betdan iborat bo`lib, ilmiy tadqiqot obektlari va uslublari asosan arxiv va yozma manbalarni tadqiq qilish, og`zaki so`rov o`tkazish, tarixiy – qiyoslash usullaridan foydalanildi, etnografik ekspeditsiya o`tkazilgan.

---

<sup>32</sup> Davletov S .R. tomonidan “Xorazm vohasida turizm sohasini kompleks rivojlantirishning asoslari” Xiva.: 2010 y

Mustaqillik sharofati bilan muqaddas qadamjolar ta`mirlanib, islom dini va diniy qadriyatlarimizga aholi orasida e`tibor yanada kuchaydi. Ulug` ajdodlarimiz Yusuf Hamadoniy, Ahmad Yassaviy, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg`inoniy, Mahmud az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Paxlovon Mahmud, Bahovuddin Naqshband, So`fi Olloyor, singari avliyo- anbiyolarning qutlug` nomlari, izzatikromi, hurmatu e`zozi o`z joyiga qo`yildi va ularning ma`naviy meroslari atroflicha holisona o`rganilmoqda. Xorazm voxasi qadim zamonlardan buyon o`zining muqaddas maskanlari, avliyo- anbiyolari, qadamjolari bilan mashhur bo`lib kelgan. Ayniqsa, VIII asrda Xorazmga islom dini va madaniyatining kirib kelishi bilan ulug` allomalar, karomatli avliyolar, pirlarga e`tiqod kuchaygan.<sup>33</sup>

Tadqiqotning asosiy maqsadi Xorazmdagi muqaddas joylarni aniqlash, ular bilan bog`liq ulug` mutafakkirlar hayotiga doir manbalarni o`rganish va monografiya tayyorlashdan iborat bo`lib ushbu loyihadan olingan natijalar:

- etnografik, geografik va toponomik ma`lumotlar to`planib, ilmiy taxlil qilindi.
- Tarixiy-madaniy obektlar nomlari bilan bog`liq afsona, rivoyatlar yig`ildi hamda qiyosiy taxlil qilindi.
- Obektlarning geografik o`rni aniqlanib, xarita yaratildi.
- Obekt nomi bilan bog`liq tarixiy shaxslarning hayoti va faoliyati yozma va arxiv manbalari asosida ilmiy tadqiq qilindi, ilmiy asarlari aniqlanib, bilografiyalar tuzildi.
- Tarixiy – madanit obektlarning arxitekturaviy tuzilishi o`rganilib qurilish tarixi o`rganildi.

Ma`mun akademiyasi tomonidan amalga oshirilgan agrar sohadagi loyihalar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan Xorazm Ma`mun akademiyasida loyihasi chetdan keltirilgan hamda o`zimizda yaratilgan va rayonlashtirilgan kuzgi bug`doy navlari viloyatlarning har xil tuproq-iqlim sharoitiga mos, kasalliklarga chidamliligi va hosildorligi bo`yicha tanlab olingan navlarni to`g`ri yo`lga qo`yish orqali

<sup>33</sup> Abdurasulov.A Abidova. Z “Xorazmdagi qadamjo va ziyoratgohlar” T: 2016 4-5 b

hosildorlikni yanada oshirish mumkin. Taklif qilinayotgan ishlanmaning iqtisodiy ahamiyati shundan iboratki, ma`lum tuproq-iqlim sharoitida o`zining potensial imkoniyatlarini namoyon qiladigan, yuqori hosilli, sifatli don beradigan mahalliy bug`doy navi chet eldan keltirilayotgan bug`doy navining o`rnini egallaydi. Buning natijasida esa nafaqat viloyatimiz bo`yicha g`alladan mo`l hosil olish va mamlakatimiz g`alla xirmoniga o`z xissamizni qo`shish balki iqtisodiy jihatdan ham o`z samarasini beradi. Xorazm viloyati sho`rlangan tuproqlari sharoitida import o`rnini bosuvchi mahalliy kuzgi bug`doy navlarining raqobatbardoshligi sinaladi. Shu bilan birga, suv ta`minoti kam bo`lgan issiq iqlimli, tuprog`i sho`rlangan hududlarda doni sifatli, yuqori va serhosil, maxalliy sharoitlarda yaratilgan kuzgi bug`doy navlari ishlab chiqarishga joriy qilinadi. Ushbu loyihaning iqtisodiy samaradorligi shundan iboratki respublikamiz aholisi non va un maxsulotlari bilan to`la ta`minlash uchun ekin maydonlarga yuqori hosilli, kasalliklarga, zararkunandalarga va yotib qolishga, qishga tuproq sho`rlanishiga chidamli, mahalliy shart-sharoitga mos mahalliy navlar tanlab ekiladi. Natijada valyuta tejalishi bilan birga, mahalliy navlarga talab oshadi, urug` yetishtiruvchi xo`jaliklarning iqtisodiy ahvoli yaxshilanadi.<sup>34</sup>

Xorazm viloyati tuproq iqlim sharoitiga, meliorativ xolatiga, ekologik va boshqa eksterimal sharoitlarga bardoshli g`o`zaning yangi “Xurma” navi Xorazm Ma`mun akademiyasi olimlari D.A.Akkujin, R.A.Eshchanov, Sh.Y.Qadirov, Z.P.Rajabov va F.Q.Jumaniyazovlar tomonidan yaratilgan. “Xurma” navi 2010-2015-yillarda Xorazm Ma`mun akademiyasi eksperimental tajriba ba`zasida ekilib sinalgan, g`o`zaning “Gosippium Xirzutum L” turiga mansub rayonlashtirilgan AN-510 va Kirgiz-3 navlarining ichki turlararo gibriddash va ko`p marotaba tanlash usuli bilan olingan. Ushbu loyihaning asosiy texnik-texnologik parametric “Xurma” navi chigitining unub chiqish kobiliyati yuqoriligi, ko`sakning yirikligi, tupining ixchamligi va yotib qolmasligi, tuproq sho`rlanishi, qurg`oqchilikka chidamliligi,

<sup>34</sup> Ma`mun akademiyasi “Raqobatbardosh import o`rmini bosuvchi maxalliy kuzgi bug`doy navlarini sinash” Loyihasi Xiva. 2014 y.

hosildorligi, tolasining texnologik xususiyatlari va boshqa qimmatli xo`jalik belgilarining yuqoriligi bilan farqlanadi. Ushbu nav tajriba sinov natijalariga ko`ra O`zbekiston Respublikasi Davlat nav sinash shaxobchasiga topshirilgan bo`lib, u 2015-yilda bir xillik bo`yicha Grunt nazoratidan o`tdi. 2016-yilda Davlat nav sinash shaxobchalarini urug`lik materiallar bilan ta`minlash bo`yicha ham bir qator ishlar amalga oshirildi va raqobatbardoshligini sinash bo`yicha Davlat sinoviga tavsiya qilingan. Ushbu loyihaning iqtisodiy samaradorlikgi shundan iboratki “Xurma” navining afzalligi paxta ekiladigan shimoliy mintaqada joylashgan Xorazm viloyati sharoitida bir vaqtning o`zida hosildorlik ham pishib yetilishi tempining yuqoriligi bilan chambarchas holatdaligida namoyon bo`ladi.

Dexqonchilikda bizga ma`lumki hududimizda sug`orish tizimiga alohida e`tibor beriladi. Xorazm Ma`mun akademiyasi tomonidan amalgam oshirilgan “Suv omborlarining tozalik darajasini aniqlashda indikator mikroorganizmlardan foydalanish bo`yicha me`yoriy, ilmiy-texnik va uslubiy qo`llanmalar” Loyihasi muhim ahamiyat kasb etadi. Ishlanmaning tavsifi shundan iboratki hozirgi davrda mintaqalardagi ekologik muammolarni tezroq hal qilish, ularni oldini olish hamda bashorat qilish, suv omborlari suvlarini muntazam tarzda fizik-kimyoviy, mikrobiologik jihatdan tekshirib turishni taqazo qiladi. Ammo, suv omborlari suvlarini muntazam tarzda tekshirib turishda iqtisodiy jihatdan ko`p mablag` talab qilinadi. Shu bois xozirgi davrda jahondagi rivojlangan 7 ta davlatda suv havzalari suvlarini tozalik darajasini aniqlashda indikator mikroorganizmlardan foydalanilmoqda. Taklif qilinayotgan ilmiy ishlanmalarda o`z yechimini kutayotgan masalalarni MDH davlatlari, jumladan Markaziy Osiyo davlatlari bo`yicha birinchi bo`lib O`zbekiston Respublikasida, aynan Xorazm Ma`mun akademiyasida amaliyotga joriy qilish bo`yicha ilmiy-amaliy ishlar olib borilmoqda.

Taklif qilinayotgan ishlanmalar suv xavzalari suvini tozalik darajasini indikator mikroorganizmlar yordamida aniqlash bo`yicha meyoriy, ilmiy-texnik va uslubiy

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak davlatchilik tarixi mavzusi haqida gap ketganida Islom Karimovning o`zbek davlatchiligi tarixining obro`- e`tiborini o`z o`rniga qo`yishda, uni yuzaga chiqarish bilan bog`liq tadbirlarni amalga oshirishdagi xizmatlarini alohida ta`kidlash zarur. Islom Karimov o`zbek davlatchiligi 2700 yillik tarixga ega ekanligini butun dunyoga rasman e`lon qilgan birinchi olim va milliy rahbar bo`ldi. Bu bilan davlatchiligidagi tarixiy ibtidosi masalasiga uzil-kesil ravshanlik kiritildi. 1997-yilda Ma`mun Akademiyasini qayta tashkil etish to`g`risida prezidentimizning chiqargan qarorlari va uning 2006-yilda 1000 yilligi nishonlanishi ilm ahlini juda quvontirdi.

**III-боб. Xorazm Etnografiyasini yoritishda M.T.Jumaniyozova, O`I.Abdullayev, O.O.Matasulovlarning “Xorazm an`anaviy taomlari tarixi” va Sh.Q.Nurullayevaning “Xorazm an`anaviy kiyimlari va taqinchoqlari” mavzusidagi innovatsion loyihibarining ahamiyati.**

### **3.1 Xorazm Etnografiyasini yoritishda M.T. Jumaniyozova, O`I.Abdullayev, O.O.Matasulovlarning “Xorazm an`anaviy taomlari tarixi”**

Ilk yozma manbalarimizdan biri Avestoda “Yomon ovqatlangan xalq na yaxshi, na kuchli ishlovchilarga va na sog`lom, baquvvat bolalarga ega bo`ladi. Yomon ovqatlanishdan odob-axloq ham aynib ketadi. Agar non mo`l-ko`l bo`lsa muqaddas so`zlar ham yaxshi qabul qilinadi”<sup>35</sup> degan fikrlar qayd etib o`tilgan. Shunday ekan har bir xalqning o`z turmush tarzi, o`z urf-odati va madaniyati bo`lgani kabi ularning o`z ozuqa maxsulotlari va ovqatlanish tartiblari bo`ladi.

Xorazm Etnografiyasini yoritishda M.T.Jumaniyozova, O`I.Abdullayev, O.O.Matasulovlarning “Xorazm an`anaviy taomlari tarixi” kitobi XIX-XX asrlardagi Xorazm an`anaviy taomlari haqida bayon etiladi. Monografiya Xorazm etnologiyasi tadqiqotchilari uchun ajoyib qo`llanmadir. Shuningdek ushbu qo`llanmadan oshxonalar faoliyati va turizm sohasida ham foydalanish mumkin. Unda rus tadqiqotchisi A.N. Samoylovich tomonidan 1908-yillarda to`plangan materiallar batafsil kiritilgan.

Xorazmliklar voxha tuprog`ida o`sadigan har bir maysa va giyohdan, unda makon topgan har bir qush, parranda va hayvondan samarali foydalanib, ulardan shohona, kamtarona, g`aribona, shifobaxsh, va kamyob kundalik taomlar, ichimliklar, shirinliklar, dorilar tayyorlaganlar.

Xorazm taomlari juda uzoq tarixga ega. Zero, Avestoda, “Moddiy olamda xalq qilingan har bir mavjudot yemak bilan tirikdir, yemaksiz o`likdir”<sup>36</sup> deyilgan.

---

<sup>35</sup> Avesto. Asqar Mahkam tarjimasi. Toshkent. “Sharq” 2001. 115-bet

<sup>36</sup> Qarang: o`sha asar. 193-241

Shunday ekan, sizga taqdim etilayotgan ushbu monografiya ham Xorazm etnologiyasini yoritishga bag`ishlangan bo`lib, unda voxa aholisi tomonidan iste`mol qilingan va qilinayotgan taomlarning nomlari, tarixi, pishirilish jarayoni, ular bilan bog`liq urf-odat va irm-sirimlar aks etgan. Nixoyat ushbu monografiya Xorazm an`anaviy oshxonasi dagi transfarmatsiya jarayonlari, shuningdek an`anaviy taomlarning vohada turizmni rivojlantirishdagi o`rni va ahamiyati ham o`z ifodasi topgan.

Albatta, Xorazm zaminida tabiat tomonidan in`om etilgan o`simlik va hayvonlar insonlarning ovqatlanish jarayonlari to`g`risidagi ko`pgina asarlarning dunyo yuzini ko`rishiga sabab bo`lgandir.

Zero, Xorazmliklar o`z zaminidagi har bir giyoh, suv, tuproq va qum, quyosh nurlariyu, oyning xira yog`dusi, olislarda miltiragan yulduz u, yomg`ir-qoridan ham hikmat va shifo izlaganlar.

Axir eng qadimiy kitobimiz bo`lmish Avestoda quyosh, oy, tuproq, olov, suv, o`simlik, go`sht va nonning ulug`lanishi bejiz emasdir. Xorazm pazandachiligini takomil topishida nafaqat xalq tajribasi, balki tabobat olimlarining ham xissasi kattadir. Ko`pgina asarlarda, masalan Abu Rayhon Beruniyning “Saydana”, Abulg`azi Bahodirxonning voxada o`sadigan giyoxlarning shifobaxsh xususiyatlari va ba`zi kasalliklarning davosiga bag`ishlangan “Manafit al-inson” risolasi, Ibn Sinoning “Tib qonunlari” asari va xali bizga ma`lum bo`lmagan qanchadan qancha kitoblarda Xorazm taomlari haqida ko`plab ma`lumotlar keltirilgan.

Mazkur mono grafiyani tayyorlashda yuqorida ko`rsatilgan asarlardan xolisona foydalilanigan va ulardan tashqari “Avesto” kitobi, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” asari, rus xarbiylarining kundaliklari, A.N.Samoylovichning “Xiva taomlarining nomlanishi” qo`lyozmasi,

B. Do`s Jonovning “Xorazm taomlari” risolasi, K.Maxmudovning “O`zbek taomlari” kitobi va keksa otaxon va onaxonlarimizning ma`mulotlaridan keng foydalandik. Bugungi kunda taomlarni har tomonlama o`rganish va yoritish zaruriyatি

tug`ildi. Zero voxax taraqqiyotiga jiddiy e`tibor berilayotgan ayni damda viloyatimizga kelib ketayotgan mehmonlar va sayyohlarning soni ham bexisob. Ularni xalqimizning azaliy va chiroyli taomlari bilan mehmon qilish tanishtirish vazifamizdir. Xorazm-Rus munosabatlari juda qadimiydir. Mashhur rus xorazmshunosi S.P.Tolstov bu munosabatlarni antiq davrlar bilan bog`laydi. Ikkala iqtisodiy va siyosiy masalalarda o`zaro do`stona aloqada bo`lganliklari ham ko`pgina manbalarda ta`kidlanadi.

Biroq, XVI asrlarda Xiva xonligida ro`y bergan betartib hayot va qavmlar tarkibining o`zgarishi qadimgi Xorazmning qudrati va siyosiy maydondagi obro`siga putur yetkazadi, shuningdek, jahon arenasidagi gegemonlik kayfiyati Rossianing ham O`rta Osiyoga bo`lgan munosabatini keskin o`zgartiradi. Natijada, XVI asrning boshlaridanoq Xiva xonligiga turli maqsadlarda rus elchilari tashrif buyura boshladi. XX asrning boshlariga qadar xonlikda bo`lgan rus elchilari voxha haqida shu qadar ko`p ma`lumotlar to`pladilarki, ularda axolining etnik tarkibi, turmush-tarzi, urf odatlari, uy-joylari, maxallachilik va oila munosabatlari, shuningdek kiyim-kechak va taomlar aks etgan edi. Rus sayohatchilari, elchilari, harbiylari garchi noxolis maqsadlarda va ulkan rejalar bilan bu o`lkaga tashrif buyurib, ma`lumotlar to`plagan bo`lsalarda, bugungi kunda ularning asarlari ilmiy jihatdan katta ahamiyat kasb etmoqda. Ammo rus mualliflarining hammasi ham o`zgalar yurtini bosib olish va xalqni talash siyosatidan manfaatdor emas edilar. Faqat, siyosiy xukumatgina ularning ma`lumotlaridan ustalik bilan foydalanar edi. Xiva xonligiga tashrif buyurgan rus xarbiylaridan biri A.N.Samoylovichdir. U Peterburg Universiteti Sharq tillari fakultetining arab-fors, tatar-turk tillari bo`limida taxsil olgan. A.N.Samoylovich Xorazmda ilmiy safarda bo`lib, voha folklori etnografiyasi va shevalariga oid materiallarni to`plash, Xiva xonligida xukm surgan madaniy hayot va adabiy muxitni xolisona sharhlab, o`sha davrning rus nashrlarida e`lon qilishi juda katta ahamiyatga egadira. 1908 yilda Xiva xonining xuzurida bo`lgan bu muallif dastlab xonlikning kutubxinasi, so`ngra axoli tomonidan iste`mol qilinadigan taomlar bilan qiziqqan. U shaxsan Madaminboyning yordami bilan Xiva taomlari to`g`risida ma`lumotlar

to`plagan va uni “Xiva taomlarining nomlanishi” deb atagan. A.N.Samoylovichning kundaligi qo`lyozma xolatida Sank-Peterburgdagi Satliqov-Shedrin nomli Davlat publitsistika kutubxonasining bo`limida 671 fond N:125 delo bilan saqlanmoqda. “Xiva taomlarning nomlanishi” deb atalgan bu qo`lyozma 90 varaqdan iborat. Xorazm Ma`mun Akademiyasining katta ilmiy xodimi t.f.n A. Abdurasulov ushbu qo`lyozmadan nusxa ko`chirib kelgan. A.N Samoylovich Xiva taomlari haqida ma`lumot to`plar ekan, O`rta Osiyo etnografiyasi yaxshi o`rganilmaganligi, bor ma`lumotlar uzuq-yuluq tarzda u yoki bu adabiyotlarda betartib yotganligini ta`kidlaydi. Shuningdek, u mavjud adabiyotlar ilmiy xarakter kasb etmasligini ham uqtiradi. Muallif o`zi qo`l urgan mavzu tavsifiy emas ilmiy xarakter kasb etishini aytib, balki mening yozganlarim kelgusida yaratiladigan ilmiy ishlar uchun muxim turtki bo`lar. Shu bilan u faqat ilmiy maqsadda ma`lumot to`playotganini ham ta`kidlaydi. A.N Samaylovich to`plagan materiallarini nashrdan chiqarish maqsadida bo`lgan.

Ammo, nimagadir bu maqsadi amalga oshmasligini bilgan holda o`z qo`lyozmasida shunday deydi: “Agar kimda –kim mening ishimni qo`liga olib, uni Xiva atroflaridan to`plagan materialari asosida to`ldirsa mammuniyat bilan aytardimki, mening chop qilish haqidagi maqsadim amalgam oshdi<sup>37</sup>”.

Muallif o`z qo`lyozmasida 90 ga yaqin nomlarni tilga olganki, ularning barchasini taom deb ko`rsatgan. Biroq, qo`lyozmani o`qish qavomida biz ularning ayrimlari ichimlik nomlari, ayrimlari esa shirinliklar, ba`zi birlari shifobaxsh dorilar ekanligining guvohi bo`ldik. A.N Samoylovich barcha ma`lumotlarni Madaminboyning aytganlari asosida yozganligini aynan ta`kidlaydi.

Extimol, Madaminboy barcha ma`lumotlarni rus tilida aniq yetkazib bera olmaganligi sababli Muallifning ma`lumotlarida chalkashliklar yuzaga kelgandir.

---

<sup>37</sup> A.N.Samoylovich. Xiva taomlarining nomlari. Qo`lyozma. S.Pb. f.671.delo N:125 1-varaq

Zero, Samoylovich uning o`zi bironta taomning tayyorlanishida ishtirok etmaganligi va ularning ba`zi larinigina tatib ko`rganligini alohida eslatadi.<sup>38</sup>

Rus muallifi tomonidan yozilgan kundalikni o`rganar ekanmiz, biz bugungi kunda ko`plab foydali taomlar iste`moldan chiqib ketayotganligi, ba`zilari esa butunlay unutilib ketganligi va yangi taomlarning ko`plab kirib kelganligining guvohi bo`ldik. Shu sababli biz mualliflar Xorazm taomlarini o`zida aks ettirgan ushbu risolani yozishga jazm etdik va uni A.N. Samoylovich yorqin xotirasiga bag`ishladik. Rus muallifi istaganidek, uni Xorazm materiallari asosida to`ldirdik, kamchiliklari va xatolarini bartaraf etdik, yangi ma`lumotlar bilan boyitgan xolda nashrga tayyorladik . SHu bilan birqalikda uning ushalmagan orzusini ro`yobga chiqarishdek katta vazifani amalgam oshirdik.

Shu o`rinda biz A.N.Samoylovich kundaligining dastlabki varaqlarining aynan tarjimasini keltiramiz.

“1908 –yilning 25-mayida Xiva xoni Madaminboyning aytganlari asosida ba`zi-bir Xiva taomlarning nomlarini, ularning tayyorlash va iste`mol qilish tartiblarini qisqagina qilib yozib chiqdim. Men o`zimni yozganlarimni va Xivaliklar tomonidan yozilgan boshqa yozuvlarni (taomlar to`g`risidagi) tekshirmadim. Shuningdek, men biror bir taominin tayyorlanish jarayonida ham ishtirok etmadim. Ularning ba`zi birlarnigina tatib ko`rdim xolos. Shuning uchun men o`zimning ushbu ishimni juda kam o`rganilgan O`rta Osiyo etnografiyasi uchun qo`shimcha material deb xisoblayman. Zero, ushbu ma`lumotlar biz ko`targan mavzu bo`yicha yangi ilmiy ishlarni dunyoga keltirsa ajab emas. Madaminboy menga aytdiki, har bir taomning nomidanoq, u qoshiqda iste`mol qilinadigan suyuq ovqatli yoki qo`lda yeyiladigan quyuq ovqatmi, uni davlat kishilari iste`mol qilishadimi yoki kambag`allarmi, albatta bilsa bo`ladi. Agar shunday bo`lsa, taomlarni bayramona yoki mavsumiy deb

---

<sup>38</sup> Abdullayev O`I, Matrasulov.O.O, Jumaniyozovalarning M. T “Xorazm an`anaviy taomlari tarixidan” 10-varaq Toshkent. “Yangi Nashr” 2016 y.

belgilash lozim. Aytaylik mening to`plagan ma`lumotlarim shunchaki tavsifiy emas, balki ilmiy xarakter kasb etadi.

Men taomlarning nomlarini akademik V.V.Radlovning alfavit tartibi asosida yozdim.

Agar kimda –kim mening ishimni qo`liga olib, uni Xiva atroflaridan to`plagan materiallari asosida to`ldirsa mammuniyat bilan aytardimki, mening chop qilish haqidagi maqsadim amalgam oshdi.

Biz yuqorida yozganlarimiz A.N.Samoylovichning qo`lyozmasidan aynan tarjimadir. Endi biz muallif yozib qoldirgan va Xiva taomlari deb xisoblagan nomlarni aynan keltiramiz. Garchi u rus muallifi bo`lsada, taomlarning barcha nomlarnin Xorazm shevasida yozgan, shuningdek, ko`pchilik taomlar kimlar tomonidan iste`mol qilinishini ham eslatib o`tilgan.

Go`sht (et), burunch,yog`, gashir, murch, sho`r-su, xamir, bosh-oyoq, qara-yog`, burunch osh, mashti palov, chakma palov, musamma palov, dog`a, govurma et, ayron bulamoq, ak-sho`rpa, ko`mach (kambag`llar taomi), ildirma (kambag`allar taomi), ishlama, unash, un-xalva, utma, navli palov, qayish, qora sho`rva, qatlama, qatti bulamoq, qovurdoq, ko`rma sho`rva, ko`rma-bulamoq, kurmush barak, kavob, kichiri, kurduk (kambag`llar taomi), kulcha, go`k go`mma, go`k barak, go`ja, go`mma, xolva, xilvistir, xiy-xay, xaliki, yaxna, yorma, yumurta barak, non, tuxum go`mma, (kambag`llar taomi), tuxum barak, duzlama, chiy, chalav, chakida, choriq, jizibiron, sho`vla, sutli chay, sutli bulamaq, sut burunchi, suzma palov, sumalak, zigira, zulbiya, shinni, sho`rva, sho`rva burunchi, shuvla osh, paklama, palov, patrak, po`sсиq, barak, bo`g`irsoq, bulamoq, mashava, mavshi, mastava, nalisa (kambag`llar taomi), kulcha jaylak (kambag`llar taomi), qora sho`rva (kambag`llar taomi) kabi taomlar tilga olingan.

Bu loyihada A.N Samoylovichning qo`lyozmasidagi qolgan matnlar aynan tarjima qilinmagan. Chunki , ularni tuzatish va to`ldirish zaruriyati tug`ildi. Zero, muallif keltirgan nomlarning hammasi ham ovqat nomi emas, balki ular shirinliklar,

ichimliklar va har doim ham iste`mol qilinavermaydigan shifobaxsh dorillardir. Kambag`allar ovqati deb tilga olingen taomlar esa, ba`zi hollarda aholi tomonidan maxsus tayyorlangan. Shu sababli biz ularni qlassifiqatsiyaladik . Bundan tashqari, monografiyada, taomlar bilan bog`liq urf-odatlar va irim-sirimlar mavzusi, Xorazm oshxonasidagi transformatsion jarayonlar, turizmni rivojlantirishda an`anaviy taomlarning o`rni kabi masalalar ham yoritiladi.

Xorazmda taomlar bilan bog`liq urf-odat va irim-sirimlar nihoyatda ko`p uchraydi. Aholi aksariyat hollarda farzandlariga irim-sirimlar orqali tarbiya beradilar. Irimlarning ko`pchiligi ozodalik, pokizalik va xalollikka qaratilgan. Go`yoki qandaydir g`ayri-tabiiy kuchlar inson hayotini boshqaradi, qandaydir mavjudotlar doimo odamlar hayotiga xavf solib turadilar (fan tili bilan aytganda atrofimizni o`rab turgan olam). Shuning uchun ertalabdan to kechgacha har qanday ishda ularga qarshi chora axtaradilar. Extimol bu xorazmiylarning qon-qoniga singib ketgan Avesto amallarining ta`siridir. Eng avvalo ular “qozon tavoqlarning kechqurun Makkaga borib kelishini ta`kidlab, qizlariga doimo uni yuvib, tozalab qo`yish shartligini, aks holda Makkada egasining ismi yomon amallar bilan tilga olinishi, unga gunoh yozilishini” uqtiradilar. Aslida u Avesto amallarining bir ko`rinishidir xolos. XX asrning oxirlarigacha qurban xayiti oyida osmondan shayton tushib inson yeydigan barcha taomlarga daxl qiladi va kasalliklar, o`lim ko`payadi deb xisoblab barcha yeydigan ichadigan narsalarning usti mahkam yopib qo`yilgan. Bu bilan aholi ozodalik va o`z sog`ligining xavfsizligini ta`minlaganlar. Chunki kechasi ochiq qolgan idish va ovqatlarga chang, turli xil miqroblar, hashoratlar tushishi mumkin.

Shuningdek, aholi yeydigan narsalarni isrof qilish, suva tashlash devlarni oziqlantiradi va kuchlantiradi deb xisoblashadi. Masalan, dasturxonadan uzoqda non yeyilmaydi, chunki uning ushog`iga devlar sherik bo`ladi, olovga ovqat qoldig`i tashlanmaydi, u devlarni oziqlantiradi, deya irim qilishadi. Zero, Avestoda devlar Doitya (Amudaryo) ning tubida makon tutganlar deyiladi.<sup>39</sup>

---

<sup>39</sup>“Avesto” Asqar Mahkam tarjimasи. Toshkent. 2001 y. Vandidod qismi.

Xorazmliklar ovqatlar ichida sutburunchini muqaddas taom xisoblaydilar va aholi orasida “sut burunchi pishgan uyning devoridan yalab o’t” degan naql yuradi. Shuningdek bu taomni to`y va aza marosimlarida maxsus pishiradilar. To`ydan keyingi, kuyov ko`rdi marosimi kuni kuyov jo`ralari uchun maxsus sutburunchi tayyorlanadi. Nixoyat vafot etgan kishining “Qirqi” marosimi kunida “yorug’likka chiqyapmiz” deb, “yil to`ldi marosimida esa “yaxshi kunlarga yetishdik” degan ma`noda bu taom tayyorlangan.

Oy yotiq holatda chiqqanda, kech kuzda daraxt gullaganda, o`lim ko`p bo`lgan hollarda, to`rtta yo`l kesishgan chorraxalarda aholi yig`ilib Qorma (shavlaning bir turi, faqat uning masallig`idan juda ko`p miqdordagi qo`y go`shti o`rin olgan) taomini pishirib butun mahallaga xayr-exson qiladilar. Bu bilan ular och ruxlarni to`ydirgan va qora kuchlarning g`ayratini susaytirgan hisoblanadilar.

Xorazmda kishilar non bilan bog`liq ko`pgina irim-sirimlarni ham bajaradilar. Jumladan, yosh bolaning yostig`i ostiga uni ins-jinslardan himoya qilish maqsadida non qo`yanlar. Kechqurun yoki uzoq yo`lga ketayotgan kishiga hamisha unga yo`ldosh hamroh bo`lsin deya non berib yuborilgan. Urushga ketayotgan kishiga non tishlatib, uni devorga ilib qo`yanlar va urushdan qaytgunicha saqlaganlar. Nonni isrof qilish, uni ushog`ini yerga tushirish katta gunoh bo`lgan.

Voxada pishiriladigan po`ssiq va bo`g`irsoq juda qadim zamonlardan aynan ruxlarga bag`ishlangan. Beruniy ularni “arvoohlarga atalgan taom” deydi va shunday yozadi: “Hayit oylarida bir kun bo`ladiki, unda ruxlar qo`zg`aladilar. Yaxshi ruxlar kishilarga yordamga otlanadilar, yomon ruxlar esa kishilarga ziyon-zaxmat yetkazadilar, deb ularni tinchlantirish uchun xorazmliklar taomlar pishiradilar. Ularni qabrlar oldiga eltilib qo`yadilar”.<sup>40</sup>

Xorazmda ovqatlar, ularni pishirish va iste`mol qilish tartibi bilan bog`liq irim-sirimlar nihoyatda ko`p.

<sup>40</sup> Abdullayev O`I, Matrasulov.O.O, Jumaniyozovalarning M. T “Xorazm an`anaviy taomlari tarixidan” 100-varaq Toshkent. “Yangi Nashr” 2016 y.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak tabiat o`zi yaratgan moddiy olamdagи barcha mavjudot va maxluqotlar orasida inson zotini barcha narsadan afzal va ustun qilib yaratgan. Insonning afzalligi uning yaratuvchanligidadir. U kun kechirishi yaratuvchanlik bilan shug`ullanmog`i uchun yemog`i lozim. Bugungi kunda taomlar tarixini o`rganish juda zarurdir. Negaki ko`plab foydali taomlar unutilgan, ba`zilari esa istemoldan chiqib ketmoqda. Ularni tiklashning esa o`ziga xos afzal tomonlari mavjud. Birinchidan chetdan oziq-ovqat keltirish uchun sarflangan xarajatlar mahalliy maxsulotlarni takomillashtirishga sarflanadi. Zero, buyuk tabib Ibn Sino kishilarning gavdasi, salomatligi ular yashab turgan yerlari, ob-havosi, ichadigan suvlari va yeydigan narsalari bilan bog`liqdir degan. Demak, yashaydigan joylariga mansub narsalarni istemol qilish o`sha joyda uzoq umr ko`rishni ta`minlaydi.

Ikkinchidan, maxalliy maxsulotlardan tayyorlangan taomlarni iste`mol qilish mazkur sharoitga xos kasalliklarga shifo bo`lishi mumkin. Axir Ibn Sino shaftoli yeganda toshma toshadigan kishi uning yaprog`ini chaynasin degan. Zero, har bir kasallikning shifosi o`zidadir.

Uchinchidan, mahalliy maxsulotlardan tayyorlangan oziq-ovqatlar ancha arzon bo`ladi.

“Xorazm taomnomasi” monografiyasini tayyorlash davomida yana shunday bir xulosaga kelinganki, vox a taomlarini o`rganish davomida bugungi kunda tashkil etilayotgan zamonaviy, har tomonlama qulay va serfayz kafe, restoran va oshxonalarimiz bilan bir qatorda, faqat an`anaviy Xorazm taomlari tayyorlanadigan ovqatlanish shahobchalarini ham tashkil etish mumkin.

### **3.2 Sh.Nurullayevaning “Xorazm an`anaviy kiyimlari va taqinchoqlari”**

Xorazm voxasi etnologiyasini rivojlantirishda t.f.n. Nurillayeva SH.Q. tomonidan tayyorlangan “Xorazm an`anaviy kiyimlari” monografiyasi alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur monografiya XIX asrning oxiri XX asrning birinchi yarmida Xorazm voxasi o`zbeklarining an`anaviy liboslari tarixi va ular bilan bog`liq urf-odat, an`analarni etnohududiy xususiyatlari taxlil etilgan.

Kitobda muzeylarda saqlanayotgan Xorazm an`anaviy kiyimlari masalasiga alohida e`tibor berilgan. Voxa o`zbeklarining an`anaviy kiyimlarini mintaqada yashovchi boshqa etnoslar, xususan, turkman, qoraqalpoq xalqlarining kiyimlari bilan o`zaro o`xshash hamda farqli etnologik jihatlari ilmiy adabiyotlar va dala yozuvlari asosida taxlil etilgan.<sup>41</sup>

O`zbek xalqining qadimiy tarixi va uning madaniy qadriyatlarini jahon madaniyati tarqqiyotida salmoqli o`ringa ega. Jahon madaniyati durdonalarining ajralmas bir qismi bo`lgan, o`zbek xalqining davlatchilik tarixi va madaniyatida muhim o`rin tutgan O`zbekistonning o`ziga xos tarixiy-madaniy mintaqalaridagi kechgan etnomadaniy jarayonlar va ularga xos xususiyatlarni tadqiq etish tobora dolzarb ahamiyat kasb etmoqda Respublikamizning tarixiy-madaniy mintaqalaridan biri Xorazm voxasidir.

Xorazm vohasi Buyuk ipak yo`lida joylashgan bo`lib uzoq tarixiy davr mobaynida jahonning yirik madaniy va iqtisodiy markazlaridan biri bo`lib kelgan. Prezidentimiz I.A.Karimov qayd etganidek, “Xorazm noyob madaniyat, nafis san`at, yuksak ma`rifat, turmushning dono falsafasi va insonparvarlik g`oyalari bilan yo`g`rilgan adabiyot va she`riyat maskani, dunyoviy ilm o`choqlaridan biridir”<sup>42</sup>

Xorazm voxasi boy moddiy va ma`naviy madaniyatining o`ziga xos mintaqaviy xususiyatlari, o`zbek tilining laxjalari, so`z zaxirasining tarixan tarkib topgan

<sup>41</sup> Nurillayeva Sh. Q “Xorazm an`anaviy kiyimlari” Toshkent “Yangi nashr” 2013 y

<sup>42</sup> Karimov.I.A Xalqimizning yo`li mustaqillik, ozodlik va tub islohotlar yo`lidir. Xalq deputatlari Xorazm viloyati Kengashi sessiyasida so`zlangan nutq. 1996-yil 16-mart. Bunyodkorlik yo`lida 4-jild-T: O`zbekiston, 1996. 269-bet

jozibadorligi bilan ajralib turadi.

XIX asr oxiri va XX asrning birinchi yarmida sodir bo`lgan tarixiy jarayonlar, ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy va madaniy o`zgarishlar o`zbek xalqining an`anaviy moddiy-ma`naviy madaniyati rivoji ham katta ta`sir o`tkazganligi ma`lum. Shu bois, bugungi kunda o`zbek xalqining an`anaviy moddiy-ma`naviy madaniyati rivojiga ham ta`sir o`tkazganligi ma`lum. Shu bois bugungi kunda o`zbek xalqi etnologiyasida xalq an`anaviy moddiy madaniyatini, jumladan, milliy kiyim-kechaklar va ularning transfarmatsiyasini, o`rganishga jiddiy e`tibor berilmoqda.

Qolaversa, an`anaviy kiyimlar va ular bilan bog`liq urf-odatlar, marosimlarni nafaqat milliy-etnik, balki ma`lum bir tarixiy madaniy mintaqalarga xosligini ilmiy taxlil etmish umumo`zbek milliy madaniyatining boy va rang-barang jihatlarini ko`rsatib berishda dolzarb ahamiyatga ega. Shuningdek, o`zbek xalqining etnik tarixi, boy moddiy va ma`naviy madaniyati, an`analarining o`ziga xos xususiyatlarini mintaqalararo bir butunlikda, tarixiy izchillik asosida batafsil o`rganilishida ham katta ahamiyatga ega.

Ma`lumki, an`anaviy kiyimlar va ularning shakllanish jarayoni etnos egallab turgan hududning o`ziga xos tabiatni, tabiiy iqlim sharoiti, aholining xo`jalik-madaniy faoliyati, etnik tarixi hamda estetik didi bilan bevosita bog`liqdir. Xorazm voxasi shimoli-g`arb tomonidan Ustyurt platosi, janubdan poyonsiz Qoraqum cho`li, sharq va shimli-sharq tomonidan Qizilqum cho`li bilan o`ralgan hamda qontenintal iqlimga ega.

Voxa aholisi muayyan darajada boshqa xalqlar bilan aloqalar cheklangan sharoitda ajdodlarning betinin ijodkorlik maxorati va mashaqqatli mehnati asosida taraqqiy qila borib, o`ziga xos betakror moddiy madaniyat yaratgan. Tabiiyki ,bu o`ziga xoslik moddiy madaniyatning muhum komponenti –kiyimlarda ham o`z aksini topgan. Shuningdek, Xorazm voxasi aholisining kiyimlarida ham sug`orma dexqonchilik rivojlangan o`troq madaniyat hamda u bilan tutash svilizatsiyaning, ya`ni qoraqalpoq, turkman va qozoq xalqlari madaniy va iqtisodiy aloqalarning o`zaro ta`sirini ham kuzatishimiz mumkin.

An`anaviylik xalq kiyimlari tarixi, ularning o`ziga xosligi qaysi matodan va q`anday tikilishi, kiyim kiyish va bichish bilan bo`g`liq urf-odatlar, marosimlarni o`rganish moddiy madaniyatni bevosita ma`naviy madaniyat komponentlari bilan o`zaro bog`liqlikda tadqiq etishni taqozo etadi. Chunki kiyimlar kishilarining bayram, to`y sayllari, turli tomosha va madaniy tadbirlar bilan bog`liq quvonchli kunlari hamda ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, ruxiy-emotsional omillar ta`sirida qayg`uli kunlarida kiyilishiga ko`ra o`ziga xos ko`rinish va bichimlarga ega bo`ladi.

Xorazm voxasi o`zbeklariga xos an`anaviy kiyim kechaklarda xalqimizning xo`jaligi, iqlim sharoiti, turmush tarzi, urf-odatlari, etnik tarixi hamda voxva unga tutash xududlarda istiqomat qiladigan turli etnoslarning (qoraqalpoq, turkman, qozoq) o`zaro aloqalari ham namoyon bo`ladi. Kiyimlarning shakllanishi va ularning ma`lum bir tarixiy davrdagi o`zgarishlarini tadqiq etish orqali ularning etnik tarix, tarixiy jarayonlar bilan bevosita bog`liqligini ko`rsatib berish mumkin. Ma`lumki, etnolog, san`atshunos, o`lkashunos, arxeolog va boshqa mutaxasislar tomonidan o`zbek xalqi, kiyimlariga oid asarlarda turli tarixiy-madaniy mintaqalarga xos xususiyatlar kiyimlarning tikilishi, kundalik va mavsumiy kiyilishidagi o`zgarishlar ham o`z aksini topgan. Shu bois asarda tizimli yo`nalishni amalgam oshirish asnosida mavzuning tarkibiy tuzilishi, mazmuni va unda yoritilgan masalalar mohiyatidan kelib chiqib ilmiy adabiyotlar shartli ravishda quyidagi 3 davrga bo`lib taxlil qilinadi.

- 1) XIX asr oxiri – XX asr boshlariga oid asarlar;
- 2) Sovet davriga oid asarlar ;
- 3) Mustaqillik yillarida yaratilgan ilmiy asarlar va adabiyotlar;

Ushbu monografiyaning “Voxa ahonisining mato tayyorlash usullari va ularning loqal xususiyatlari” bo`limida Markaziy Osiyo xalqlarida mato tayyorlash va matoga ishlov berish jarayonlarini o`rganilgan. Bu an`ana o`tgan asrning boshlariga qadar xalq hunarmandchiligining muhim tarmoqlaridan biri bo`lgan. Bu davrda hunarmandchilik buyumlari, jumladan ma`tolar ham asosan, uy sharoitida, qo`lda tayyorlangan. Umuman olganda, mato tayyorlash usullarining ildizlari qadimgi

davrlarga borib taqaladi va o`zida ma`lum darajada etnik-loqal xususiyatlarini aks ettiradi. Xorazm voxasida matolar tayyorlashning o`ziga xos uslublari bo`lib, o`troq o`zbeklar, asosan paxta, kandir, ipak va yarim ipak matolarni ishlab chiqargan. Paxtadn ip-gazlama ishlab chiqarish uy sharoitida, ayollar tomonidan oila extiyoji uchun amalga oshirilgan , ipak matolar, asosan, erkaklar tomonidan bozorda sotish uchun to`qilgan. XX asr boshlarida voxax an`anaviy kiyimlarida chetdan keltirilgan fabrika va kustar matolar bilanbirgalikda ko`proq maxalliy hunarmandlar tomonidan tayyorlangan matolar ham ishlatilgan. 1930- yillarning o`rtalariga kelib, Urganch, Xiva, Xonqa, Xazorasp Gurlan shahar va qishloqlarida “Umid”, “Uchqun”, “Yangi hayot”, “Qizil tikuvchi” kabi tikuvchilik artellari faoliyat ko`rsatgan.

Ma`lumki, milliy liboslari insoniyat hayotining turli jabxalari bilan bog`liq holda yuzaga kelgan. Xorazm voxasi an`anaviy kiyimlari mintaqaning boshqa hududlari kiyimlariga qaraganda loqal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xorazm voxax aholisining liboslari asrlar davomida shakllanib rivojlanib kelgan.

Uning shakllanish jarayoniga xalqning turmush tarzi va ijtimoiy sharoiti hamda qo'shni yoki olisdagi xalqlar bilan o'zaro aloqalari ham muayyan ta'sir ko`rsatgan. Qolaversa, moddiy madaniyatning muhim komponenti bo`lgan kiyim-kechaklarning dinamik rivojlanishiga tarixiy jarayonlar va tabiiy-geografik omillar asrlar davomida ta'sir o'tkazib kelgan.XX asr boshlarida XX asr boshlarida markaziy Osiyo xalqalrida bo`lgani singari vohada ham kiyimlardagi umumiylilik ularning keng, uzun, to'g'ri bichimli, sodda ko'rinishi va o`ziga xos kiyim bezaklariga ega ekanligi bilan izohlanadi. O'zbeklarning bunday bichimdagi an`anaviy liboslari tunakasimon kiyimlar majmuasiga kiradi. Shuningdek, kiyimlarda turli xalqlarning madaniy belgilari aks etgan bo`lib, o`ziga xos umumiy jihatlar saqlanib qolgan.

Rossiya imperiyasi tomonidan Xiva xonligining bosib olinishi va o'lkada Tovar-pul munosabatlarining shakllana borishi natijasida Xorazm vohasi aholisining moddiy-madaniyatni ham qator o'zgarishlar yuz bera boshladi. Rossiyaning fabrika matolari Xorazmga keltira boshlanganidan so'ng kiyimlarning rangi, tikilish uslubi,

ya’ni bichimi ham o’zgargan. Ayniqsa o’lkaga tikuv mashinalarining kirib kelishi yangi kiyim turlari-kamzul, jilet va shu kabi yangi tipdagи kiyim-kechaklarning yuksak badiiy mahorat bilan tikilishiga sabab bo’ladi. Bundan tashqari o’zaro etnomadaniy aloqalar ta’sirida vohaga yevropacha bichimdagи kiyimlar kirib kela boshladi. Natijada XX asrning birinchi yarmida an’anaviy xalq kiyimlarining bichimi, tikilishi, rangi va matolarda ayrim o’zgarishlar yuz berdi.

Voxada mahalliy tikuvcilar tomonidan to’qib tayyorlagan bo’z, chit kabi tabiiy paxta tolasidan to’qilgan matolar to’qilish uslubi jihatidan umumo’zbek matolaridan farq qilmasa ham, matoga chitkarlar tomonidan qoliplar yordamida bosilgan bezaklarning nomlanishi (uch yaproq, qarg’a tish, madohil) hamda o’ziga xos rang (qizil, jigarrang, qirmizi,oq,siyohrang) kaloriti bilan ajralib turgan.

Mato to’qimachiligida uni bo’yash ishlari bilan boshqa hududlarda maxsus bo’yoqchilar shug’ullangan bo’lsa, vohada chitkarlar shug’ullanib, ular xatto uy sharoitida to’qilgan tabiiy bo’z va ipak matolarni ham buyurtma asosida bo’yab berishgan.

Ipak va yarim ipak mato to’qish va ulardan “Xiva do’ni” deb ataluvchi mashhur to’n tikish faoliyati bilan jommoblar shug’ullangan bo’lib, ular tayyorlagan to’nlarni nafaqat voha aholisi, balki qo’shni xalqlar (m., turkmanlar va Rossiya bozorlari, hatto Finlandiyaga ham chiqarilgan) orasida ham katta ehtiyoj bilan xarid qilingan.

Mato to’qimachiligida respublikaning boshqa birorta joyida uchramaydigan matoga yaltiroq tus berish va ohorlashda qo’llaniladigan mo’ratosh bilan ishlov berish usuli mavjud bo’lib, bu katta kuch talab qiladigan hunar egalari mintaqada “mo’rachilar” deb atalgan.

XX asr boshlarida kiyim tikib tayyorlash bilan “mashinachilar” deb ataluvchi tikuvcchi ayollar shug’ullangan bo’lib, ular kiyimlarni buyurtma asosida tikkanlar. Keyinchalik tikuv mashinalari har bir xonadonga kirib bora boshlaganligi tufayli ayollar o’z farzandlari uchun o’zlari kiyim tika boshlaganlar.

An'anaviy o'zbek kiyimlari va zargarlik buyumlari respublika va jahonning ko'plab amaliy san'at va etnografiya muzeylarida saqlanib qolgan bo'lsa-da Xorazm kiyimlariga oid qimmatli materiallar bir muncha to'liq, yaxlit tarzda Xivada "Ichanol'a" muzey- qo'riqxonasi fondida saqlangan.

Ayollarning kiyimlarida, bosh kiyimi va bezaklarida arxaik elementlar ko'proq saqlangan. Mahalliy ayollarning uy mashg'uloti bilan bandligi, jamiyat hayotidan ajralib qolganligi bunga sabab bo'lган. Keyinchalik jamiyat hayotida yuz bergen ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar (1920-1930-yillarda Respublikada keskin mafkuraviy kurash, ya'ni hujum harakati o'tkazilishi) va ayollarning jamiyat hayotiga tortilishi oqibatida ularning kiyimlari ham ma'lum o'zgarishlarga uchrab, an'anaviy kiyimlar o'mini yevropa bichimidagi zamonaviy kiyim va taqinchoqlar egallagan.

Bular an'anaviy uzun va keng bichimli ko'yaklar va hajmi katta an'anaviy zargarlik buyumlaridan ishslash uchun qulay, yengil, ixchamligi bilan ajralib turgan.

Voxada, asosan, ayollar an'anaviy kiyimlari bilan bog'liq marosimlar keng tarqalgan bo'lib, bu marosimlarning ko'pchiligi kiyim bichish va tikish, ayollarning bir yosh darajasidan ikkinchi yosh darajasiga o'tishi (lachak to'yi) hamda nikoh to'yi (ko'shana bichar, po'stin poyondoz, belbog' yechar, chupon palov, galin go'rар va hokazo marosimlar), dafn marosimlari (kafanlik, chit tashlar, ko'yak yitar marosimi) shaklida o'tkazilgan va marosim kiyimlari sifatida XX asr davomida (ko'proq keksalarda) saqlanib qolgan.

XX asr boshlarida vohaning brcha yoshdagи erkak va ayollari uchun kundalik kiyimi hisoblangan jubba keyinchalik go'dak bolalarning kundalik kiyimi sifatida saqlanib qolgan.

Kiyimlarning bichimlari ham o'rganilgan davr mobaynida doimiy ravishda o'zgarib borgan. XX asr boshlariga qadar Xorazm vohasining katta yoshdagи ayollari o'rtasida uchburchak asosli tunuka nusxa bichimdagi, qizlar o'rtasida gorizontal yelka yoqali kiyimlar urf bo'lган bo'lsa, keyinchalik XX asrning 30—40-yillaridan boshlab tur mushga chiqqan ayolar va qizlar kiyimlaridagi farqlar asta-sekin yo'qola borib,

barcha ayollar o'rtasida dumaloq, uchburchak, trapetsiya shaklidagi koketkali ko'krakburma ko'yaklar urf bo'la boshladi. Qadimdan kiyilib kelayotgan uzun tunakanusxa ko'yaklardan farqli ravishda ko'krakburma ko'yaklar ancha torayib, uzunligi qisqarib bordi.

Ayollar qomatini begona nazardan saqlashga qaratilgan ko'yaklar asta-sekin iste'moldan chiqib, gavdaning ma'lum qismiga kiyiladigan yevropacha rusumdag'i ko'yaklar, kofta va bluza, yubka va jemperlar kirib keldi. Bunday kiyimlar o'lkaga turli maqsadlarda tashrif buyurgan yevropaliklar, so'ngra mahalliy ilg'or kishilar tomonidan olib kirildi. Keyinchalik an'anaviy kiyimlarga eskilik sarqiti deb qaralgani bois ular iste'moldan butunlay chiqib ketdi va yangi rusumdag'i yevropacha kiyimlarning kiyish ommalashdi. Chunonchi bu borada Xorazmda XX asrning 20-30-yillarida ziyolilar va ko'proq harbiylar o'rtasida charm kurtkalar urf bo'lган bo'lsa, 50-yillarda kaverkort (xitoycha mato) kastyum-shimlar, galife-shim, kitel, galstuk, xrom etiklar urf bo'ldi. 30-40-yillarda paranji-chachvon, og'ir hajmli taqinchoqlar taqish ta'qiqlangan, ayollar bosh kiyimlari ham endilikda butunlay o'zgarishlarga uchragan. Ko'yaklar bichimlarining doimiy ravishda o'zgarishlarga uchrash jarayoni davom etdi. Endilikda tikuvchilar ko'yak va yubkalarda klin (asosli qism) larni qo'llay boshladilar. Ko'p klinli ko'yaklar va yubkalar kiyish urf bo'la bordi. Natijada ko'krakburma ko'yaklar endi faqat keksa yoshdagi ayollar ko'ylagiga aylanib qoldi. Demak, Xorazm o'zbeklari kiyimlari nafaqat bichimi, balki o'zining koloriti, uzunligi va kengligi, kiyim elementlari bilan farq qilgan.

An'anaviy kiyimlar qo'shni xalqlar kiyimlari bilan ayrim umumiylklarga ega bo'lib, ba'zan kiyim uchun ishlatiladigan matolar, ularni bo'yash, ulardan kiyim tayyorlash va kiyimlar uzunligi, yengi, yoqasi va boshqa kiyim detallarida ko'proq kuzatiladi. Shu bois kiyim bichimlari xalqlarda emas, balki hududlar doirasida shakllanganligi ham ko'rish mumkin. Bir tabaqa yoki kasb-kor vakillarining kiyimlari bir xil bichimda bo'lган. Ijtimoiy farqlar kiyimlarning qimmatbaxoligi va miqdorida ko'ringan. Lekin ma'lum bir ijtimoiy guruxni, anglatib turuvchi kiyim turlari ham

bo'lgan. Bayram va to'y kiyimlari oddiy kundalik kiyimdan matoning sifati, tikilishi bilan farqlangan.

Erkaklarning an'anaviy kiyimlaridan bosh kiyimlari: cho'girma, salla,taxya,shapka,shlapa,kepka,kupanka,papaxa, ko'ylaklaridan: mullacha yoqa ko'ylak, yaktak,ukraincha ko'ylak,galife-shim,kitel, kastyum-shim, ustki kiyimlardn: chopon,to'n,korjoma,makentosh,plash, palto,kurtka, Oyoq kiyimlardan: mahsi-kalish, sariq etik,kiza etik,xrom etik,botinka,chuvak, choriq,tuflilargacha bo'lgan evolutsion jarayonni o'z ichiga olgan rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. <sup>43</sup>

Xorazm zargarligi an'anaviy elementlarni o'zida (XX asrning boshlariga qadar) saqlab qolganligi bilan xarakterlanadi. Zargarlik buyumlarini yasashda aholining tabaqaviy bo'linishiga qarab (keyinchalik buyurtmachining iqtisodiy holatiga qarab) buyumlarni oddiy yoqa hajmdor qilib yasash, zargarlik buyumlarini yasashda quyish, siqish,sirlash va xal berish usullaridan foydalanish zargarlikning o'ziga xos xususiyatlaridir. Zargarlikda ko'proq bosh kiyimlar bilan bog'liq taqinchoqlar yasashda till ova kumush, oddiy mis tangalardan ko'proq foydalanish, taqinchoqlar yasashda bir emas, bir qancha bezak toshlar ishlatish, zargarlik buyumlari yasashda handasaviy, islimiy va zoomorfik usullarni birgalikda qo'llash, taqinchoqlarda ko'p miqdorda oltin xal berilgan yaproqcha va zo'ldirchalardan foydalanish- voha zargarligining o'ziga xos jihatlaridir.

Vaqt o'tishi bilan kiyimlardagi bezaklar ko'rksamlik va boylik darajasini ko'rsatish vositasi sanalgan. Kiyim shakli o'zgarmagandek tuyulsa ham, u har holda tarkibiy o'zgarishlarga (mato) uchragan.

XX asrning birinchi yarmiga kelib esa, ayollar va qizlar kiyimlari o'rtasidagi farqlar yo'qola boshladi. Buni vohadagi qoraqalpoq, turkman, o'zbek va boshqa etnoslar kiyimlaridagi umumiylilikda ham o'zga xalqlarning turli bichimdagи kiyimlari egallaganligida ko'rish mumkin. Shu davrda har bir etnik va loqal guruhlarda gorizontal va vertikal qismli kiyimlar o'rnashib qolganligini kuzatish, aniqlash

<sup>43</sup> Nurillayeva Sh.Q "Xorazm an'anaviy kiyimlari" Toshkent "Yangi nashr" 2013 y

mumkin. Jumladan: palto, splash, makentosh, fufayka, charm kurtka, shinel, qirza etiklar, shlyapa, turli ko'rinishdagi shapkalar, telpaklar, fabrika oyoq kiyimlari ham kirib kelgan.

Voxa ayollarining kiyimlari umum o'zbek kiyimlari kabi o'ziga xos tarzda shakllanib, bunda ham ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar, boshqa xalqlar bilan o'zaro aloqalarning ta'siri ayniqsa katta bo'lgan.

Xorazm o'zbeklari hayotida asrlar davomida shakllangan va xalq hayotiga singib ketgan kiyim-kechaklar bilan bog`liq urf-odat va marosimlar to bugungi kunimizga qadar o`lmas ma`naviy qadriyat sifatida yashab kelmoqda. Qadimda insonlar o`zlarining tabiat kuchlari oldidagi ojizligi, ezgulik va yovuzlik o`rtasidagi munosabatlarni sezgan holda an`anaviy kiyimlarda turli xil ramzlarini, o`ylab topganlar. Bu ramzlar turli belgilar, naqshsimon bezaklar va rasmlar orqali ifodalangan. Ular o`z dunyoqarashlari, tasavvurlari va e`tiqodlari asosida marosimlarga xos kiyimlarni kiyishgan.

Voha ayollarining boshga o`raladigan an`anaviy kiyimlaridan lachak kiyish Xorazm voxasida o`ziga xos tarzda o`tkazilgan. Ayolning bir yosh bosqichidan ikkinchisiga o`tishi maxsus marosim tarzida nishonlangan bo`lib, unda marosim sababchisining bosh kiyimi shaklan o`zgartirilgan. Voxada bunday marosim lachak to`yi deb atilib, aynan ayollar taxyasining lachak bosh kiyimiga almashtirilishi bilan izoxlanadi. Lachak kiymak –xorazmlik ayollarda qadimdan saqlanib kelayotgan urf-odatlardan biri xisoblanadi. Bunga ko`ra, lachak kiyayotgan ayol o`z o`rtoqlari va dugonalarini chaqirib, lachak to`yi marosimini nishonlashgan. Lachakni ayolga dugonalarini kiyigizgan.<sup>44</sup>

Xorazm voxasi o'zbeklarining an`anaviy kiyim-kechaklariga bag`ishlangan mazkur monografiya yakunida quyidagi taklif va tavsiyalarni bildirilgan.

- o`zbek an`anaviy kiyimlari tarixi, tarixiy shakllanishi, ularni tayyorlashdagi matolar evolyutsiyasini ko`rsatuvchi an`anaviy kiyim-kechaklar va matolarga oid

---

<sup>44</sup> Nurillayeva Sh.Q "Xorazm an`anaviy kiyimlari" Toshkent "Yangi nashr" 2013 y 104-b

fotoalbomlarni tayyorlash, internet tizimi orqali o`zbek miliy kiyimlarini keng miqyosida jahon xalqlariga targ ib-tashviq qilish ishlarini amalgam oshirish zarur;

- Etnologlar, san`atshunoslar, dizaynerlar, o`lkashunoslar, tarixchilar va turli kasb egalari ishtirokida maxsus kasbga doir kiyimlar majmuasini yaratish maqsadga muofiqdir. Shuningdek o`quvchilar, talabalar, magistrler, aspirantlar va boshqalar uchun qulay, ixcham, chiroqli bichimdagi kiyimlarni yaratish lozim.

- maxsus kasb-hunar kollejlarida maxsus bichimdagi kiyim-kechaklarning evolyutsiyasi va transformatsiyasi jarayonlarini o`rgatishda zamonaviy dizayn bilan uyg`unlikda kiyimlar modelini yaratish va unitilgan, unitilib borayotga kiyim turlarini izlab topish, qayta yaratish yanada ahamiyatlidir.

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak milliy liboslari insoniyat hayotining turli jabhalari bilan bog`liq holda yuzaga kelgan. Xorazm voxasi an`anaviy kiyimlari mintaqaning boshqa hududlari kiyimlariga qaraganda loqal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xorazm voxasi aholisining liboslari asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan. Uning shakllanish jarayoniga xalqning turmush tarzi va ijtimoiy sharoiti hamda qo`shti yoki olisdagi xalqlar bilan o`zaro aloqalari ham muayyan ta`sir ko`rsatgan. Qolaversa, moddiy madaniyatning muhim komponenti bo`lgan kiyim-kechaklarning dinamik rivojlanishiga tarixiy jarayonlar va tabiiy geografik omillar asrlar davomida ta`sir o`tkazib kelgan. XX asr boshlarida markaziy osiyo xalqlarida bo`lgani singari voxada ham kiyimlardagi umumiylilik ularning keng, uzun, to`g`ri bichimli, sodda ko`rinishi va o`ziga xos kiyim bezaklariga ega ekanligi bilan izohlanadi.

## Xulosa

1. Albatta, mustaqillik davrida O`zbekiston Respublikasining barcha ilmiy tadqiqot institutlari, markazlari oliy ta`lim muassasalarida ko`plab ilmiy ishlar olib borilmoqda. Olimlarimiz tomonidan yaratilgan ilmiy yangiliklarni keng ommaga ma`lum qilish, ulardan ishlab chiqarishda va amaliyotda samarali foydalanish maqsadida respublikamiz tomonidan innovatsion loyihalar yarmarkalari tashkil qilina boshladi. Bozor iqtisodiyotining o`zbekcha modeliga asoslangan va “Qadrlar tayyorlash milliy dasturi” ning maqsad –natijalariga qaratilgan ushbu yarmarkalarga respublikamizning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy-ma`rifiy taraqqiyotiga bag`ishlangan ko`plab loyihalar taqdim etildi. Ularning katta ko`pchiligi davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan shartnomalar asosida qo`lga kiritilib amaliyotga tadbiq etildi. 2016-yilga qadar innovatsion loyihalar respublika miqyosida sakkiz marta va regional miqyosda ham bir necha marta o`tkazildi. Bu yarmarkalarda ijtimoiy fanlarning dolzarb masalalari va yangiliklari ham loyiha sifatida ishtirok etdi. Ayniqsa, hududiy yarmarkalarda Xorazm tarixini aks ettiruvchi bir qancha innovatsion korxona va tashkilotlar e`tiborini o`ziga jalb etdi.

2013-yilda o`tkazilgan V respublika innovatsion loyihalarining hududiy yarmarkasida t.f.n Sh.Nurullayeva tomonidan taqdim etilgan “Xorazm an`anaviy kiyimlari” loyihasi Xorazm viloyati hokimligi tomonidan e`tirof etildi.

Bu loyihada voxha aholisining an`anaviy kiyim-kechaklari va ularning lojal xususiyatlarini yoritish ko`zda tutilgan edi. Loyiha monografiya sifatida chop etildi va o`quvchilarga yetkazib berildi. Xorazm vohasini har tomonlama rivojlantirishda innovatsion loyihalarning ahamiyati juda ham katta chunki bu loyihalar nafaqat Xorazm viloyatini balki respublikamizning ham iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham respublikamizda har yili innovatsion loyihalar yarmarkalari tashkil qilina boshlandi. Tarixiy taraqqiyot shundan dalolat beradiki ma`naviyatsiz bironta mamlakat va inson

o`zligini topgan emas. Ma`naviy- marifiy jarayon qanchalik yuksak bo`lsa, o`sha joyda o`sish, rivojlanish, barkamollik mavjud bo`lgan.

2. Xorazm cheksiz qum arxanlari orasida joylashgan o`chmas mayoq, yashil vox va mashaqqatli taraqqiyot maskani. Tabiat yaratgan jamiki narsalarni muqaddas bilgan va ulardan oqilona foydalanuvchi, yaratuvchan kishilar yurti. Viloyatni svilizatsiya bilan bog`lashga to`sinqinlik qiluvchi tabiiy to`sinqlar bo`lishiga qaramasdan o`zini madaniyat beshigiga aylantira olgan jozibador o`lka. Bugungi kunda ham Xorazm ko`plab mashaqqatli mexnatlar evaziga yanada jozibador va maftunkor tusga kirmoqda. Zero, turizm infratuzilmasini rivojlantirish viloyatni butun dunyoga mashhur qila oladi va bunga yetarlicha asos bor.

Xorazm turizm imkoniyatlari boy viloyat. Uning hududida joylashgan qator tarixiy obidalar asrlar davomida tadqiqotchilar va sayyoohlarning e`tiborini o`ziga jalb qilib kelmoqda. Ammo keyingi davrlarda viloyatdagi tarixiy obidalarni saqlash ishlariga jiddiy e`tibor qaratilmadi, ularni rekonstruksiya qilish va zamonaviy shakllarni yaratish borasida esa aslo bosh qotirilmadi desak yanglishmaymiz.

3. Tabiat o`zi yaratgan moddiy olamdagи barcha mavjudot va maxluqotlar orasida inson zotini barcha narsadan afzal va ustun qilib yaratgan. Insonning afzalligi uning yaratuvchanligidadir. U kun kechirishi yaratuvchanlik bilan shug`ullanmog`i uchun yemog`i lozim. Bugungi kunda taomlar tarixini o`rganish juda zarurdir. Negaki ko`plab foydali taomlar unutilgan, ba`zilari esa istemoldan chiqib ketmoqda. Ularni tiklashning esa o`ziga xos afzal tomonlari mavjud. Birinchidan chetdan oziq-ovqat keltirish uchun sarflangan xarajatlar mahalliy maxsulotlarni takomillashtirishga sarflanadi. Zero, buyuk tabib Ibn Sino kishilarning gavdasi, salomatligi ular yashab turgan yerlari, ob-havosi, ichadigan suvlari va yeydigan narsalari bilan bog`liqidir degan. Demak, yashaydigan joylariga mansub narsalarni istemol qilish o`sha joyda uzoq umr ko`rishni ta`minlaydi.

Ikkinchidan, maxalliy maxsulotlardan tayyorlangan taomlarni iste`mol qilish mazkur sharoitga xos kasalliklarga shifo bo`lishi mumkin. Axir Ibn Sino shaftoli yeganda

toshma toshadigan kishi uning yaprog`ini chaynasin degan. Zero, har bir kasallikning shifosi o`zidadir. Uchinchidan, mahalliy maxsulotlardan tayyorlangan oziq-ovqatlar ancha arzon bo`ladi. “Xorazm taomnomasi” monografiyasini tayyorlash davomida yana shunday bir xulosaga kelinganki, voxha taomlarini o`rganish davomida bugungi kunda tashkil etilayotgan zamonaviy, har tomonlama qulay va serfayz kafe, restoran va oshxonalarimiz bilan bir qatorda, faqat an`anaviy Xorazm taomlari tayyorlanadigan ovqatlanish shahobchalarini ham tashkil etish mumkin.

Xorazm voxasi an`anaviy kiyimlari mintaqaning boshqa hududlari kiyimlariga qaraganda loqlal xususiyatlari bilan ajralib turadi. Xorazm voxasi aholisining liboslari asrlar davomida shakllanib, rivojlanib kelgan. Uning shakllanish jarayoniga xalqning turmush tarzi va ijtimoiy sharoiti hamda qo`shni yoki olisdagi xalqlar bilan o`zaro aloqalari ham muayyan ta`sir ko`rsatgan. Qolaversa, moddiy madaniyatning muhim komponenti bo`lgan kiyim-kechaklarning dinamik rivojlanishiga tarixiy jarayonlar va tabiiy geografik omillar asrlar davomida ta`sir o`tkazib kelgan. XX asr boshlarida markaziy osiyo xalqlarida bo`lgani singari voxada ham kiyimlardagi umumiylilik ularning keng, uzun, to`g`ri bichimli, sodda ko`rinishi va o`ziga xos kiyim bezaklariga ega ekanligi bilan izohlanadi.

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati**

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q.- T.: O`zbekiston 1998
2. Karimov I.A. O`zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.-T.: O`zbekiston, 1996.
3. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod vatan qolsin.- T.:O`zbekiston, 1996.
4. Karimov I.A Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir.-T.:O`zbekiston, 1996
5. Karimov I.A. Bunyodkorlik yo`lidan.- T.:O`zbekiston 1996.
6. Karimov I.A. Yangicha fikrlash va ishslash- davr talabi.-T.:O`zbekiston, 1997
7. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. – Toshkent, O'zbekiston, 1994.
8. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent, Sharq nashriyot-matbaa kontserni, 1997.
9. KarimovI.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent, “Ma’naviyat”, 2008 yil.
- 10.Karimov I.A Ozod va obod vataan, erkin va farovon hayot-pirovardi maqsadimiz.- T.: O`zbekiston, 2000 y.
- 11.Karimov I.A. Biz kelajagimizni o`z qo`limiz bilan quramiz.- T.: O`zbekiston, 1999 y.
- 12.Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz ma`sulmiz- T.: O`zbekiston 2001 y.
- 13.Karimov I.A Xalq deputatlari Xorazm viloyati sessiyasida so`zlagan nutqi “Xorazm xaqiqati gaz. 1996 y 16-mart”

## 2. Ilmiy adabiyotlar:

1. Asqarov A.A. “O’zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi”. Toshkent.2007.
2. Abdurasulov.A. Abidova. Z. “Xorazmdagi qadamjolar va ziyyaratgohlar” T: 2016-y
3. Azizzo`jayev A. “Xiva ming gumbaz shahri” T. 1997
4. Ashin.A.D, Nasilov.D.M, Alpatov.V.M “Arxivniy dokumentio gibeli A.N.Samoylovich. M.Vostochnaya literatura. 2002-c 7-10
5. Abdullaev M.S. YF1-FA-G003 shrifli “Mustaqillik yillarida Xorazm badiiy san`atining rivoji” Xiva. 2017 y.  
Baratov S.R F7.3.14 shifrli “Janubiy Xorazm madaniyatining eng qadimgi va qadimgi tarixi”. Xiva 2007 y.
6. Baratov S.R FA-F8-019 shifrli “Qadimgi Xorazm urbanizatsiyalashgan madaniyatining ildizlari” (mil.av. VIII-V asrlardagi Janubiy Xorazm dafn inshoatlari asosida) Xiva. 2011-y.
7. Baratov S.R F7.3.14 shifrli “Janubiy Xorazm madaniyatining eng qadimgi va qadimgi tarixi”. Xiva 2007 y.
8. FA-A1-G015 shrifli Grant loyihasi “Xiva xonlari davlat arxiv xujjatlari II jild”
9. YF1-FA-G003 shrifli Grant loyihasi “Mustaqillik yillarida Xorazm badiiy san`atining rivoji” “Ma`mun Akademiyasi” 2017-y
10. Matrasulov SH. “Janubiy Xorazm o`rta asr shaharlarining moddiy madaniyati tarixi(Xorazm viloyatidagi arxeologik yodgorliklar misolida)” loyiha. “Ma`mun akademiyasi” 2009-2011 y.
11. Beruniy. “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar” TA.1-t T: 1968-y
12. Bayoni Shajarayi Xorazmshohiy.-Toshkent :Kamalak ,1991 .-B.264

13. Isxoqov.M.M “Xorazm voxasida qadimiy davlatchilik va svilizatsiya tarixi” Xiva -2007
14. Do'stjonov B. “Xorazm taomlari”. T. “O'zbekiston”. 1994
15. Dmitriev L.V. “Qatalog tyurskix rukopisey”- M. 2002.
16. Jabbarov I. M. “O'zbek xalqi etnografiyasi”. T., «O'zbekiston» 1994.
17. Jabbarov I. M. “O'zbeklar: turmush tarzi va madaniyati”. T., 2003.
18. Jumaniyozova M.T, Abdullayev O.I, Matrasulov O.O “Xorazm an'anaviy taomlari tarixidan” T. “Yangi Nashr” 2016 y
19. Masharipova G.Xorazmda bitilgan qo'lyozmalar.-Toshkent .1997.-B.47
20. Mulla Bekchon Rahmon o'g'li ,Muhammad Yusuf Devonzoda “Xorazm musiqiy tarixchasi” .-M.1925.
21. Munirov Q. “Xorazmda tarixnavislik” T. 2002
22. Nurillayeva Sh.Q “Xorazm an'anaviy kiyimlari” Toshkent “Yangi nashr” 2013 y
23. Narodi Sredney Azii Kazaxstana. Pod.red. S.P. Tolstova. M., 1962..
24. Jumaboev X. Xasanov X. “Xorazm ko'hna madaniyat o'chog'i”. T: 1983 y.
25. Davletov S.R. tomonidan “Xorazm vohasida turizm sohasini kompleks rivojlantirishning asoslari” Xiva. 2010 y.
26. Ro'zimboyev X. “Chet el sharqshunoslari va Xorazm folklori”. Urganch 1979-y
27. Samoylovich A.N. “Xiva taomlarining nomlari”. Qo'lyozma f.671 dN:125
28. Tolstov S.P. “Drevniy Xorezm” M. 1948
29. Fozilov E. “Fanga bag'ishlangan umr” Guliston-Toshkent. 1973. N:
30. Yusupov. J. “Xorazm ertagi va hayot haqiqati” T. 1997.
31. Xudayberganov K. “Xiva xonlari tarixidan”- Urganch. 2008
32. Shoniyozov.K.Sh. “O'zbek elatining shakllanish jarayoni”.T.Sharq.2001.

## **Internet saytlari**

1. www/etnoxorazm.uz
2. www/Ziyo. Uz
3. www/ kitobsayyoh.uz
4. www/google/uz-O`zbekiston izlash sayti
5. inbox.uz;